

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

**5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi**

**KARIMOVA ZEVARJON XAMIDOVNANING
«UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUQIMIY HAJVIYOTINI
O‘RGATISH USULLARI»
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2016

Bitiruv malakaviy ishi o'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishining
2016- yil ____dagi ____bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n., K.Tashanov
Bitiruvchi:	Z. Karimova

Karimova Zevarjon Xamidovnaning «Umumta'lim maktablarida
Muqimiy hajviyotini o'rgatish usullari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%»)
qo'yildi.

«____» _____ 2016 yil

DAK kotibasi:	G.Pashieva
---------------	------------

M U N D A R I J A:

	KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	4
I	MUQIMIY LIRIKASIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY	
BOB	HAIYIIYOT	11
1.1.	Tarixiy haqiqatning badiiy in'kosi	11
1.2.	Tipik voqelik va tarixiy shaxslar talqini	14
II	MUQIMIY HAIYIIYOTINI ZAMONAVIIY	
BOB	PEDAGOGIK USULLARDA O'QITISHNING	20
	ASOSLARI	
2.1.	Davlat ta'lim standarti va o'qitish usullari	20
2.2.	Haiyiyot janri va o'qitishning interfaol usullari	39
III	TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA	
BOB	DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI	51
3.1.	Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.	51
3.2.	3.2. Ochiq dars ishlanmasi	52
	XULOSA	66
	FOYDALANILGAN ADABIIYOTLAR.	70

KIRISH

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi: XX asrning so‘nggi choragi arafalari O‘zbekistonda ham istiqlol talabining qaytadan keskinlasha borishi, bu g‘oyani amalga oshirish uchun kurash hamda unga erishish kabi murakkab bir ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jarayon davri bo‘ldi. Bu borada milliy ziyolilarga, xususan, ijod ahliga e‘tibor yanada kuchaydi. Aynan XIX asrning so‘nggi choragida o‘zbek xalqi o‘z taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy bir bosqichini yakunlab, yangi bir bosqichga qadam qo‘ydi. Bu xusuda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: “Xalqning madaniy qadriyatlari, ma‘naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”¹, - deya alohida ta’kidlaydi. Bu yangi davr siyosiy jihatdan mustaqillikning qo‘lga kiritilishi; ijtimoiy va iqtisodiy hayotning yangilanishi; ma‘naviy-ma‘rifiy sohada, inson tafakkurida teran evrilishlarning sodir bo‘la boshlashi, milliy qadriyatlarning tiklanishi, jamiyatning barcha sohasida qadimiy va boy an‘analarning yangi tarixiy kontekstda rivojlantirilishi bilan xarakterlanadi.

Muqimiy adabiyotimiz tarixidan ustoz lirik shoir, zabardast hajviyotchi sifatida muhim o‘rin olgan. Uning barakali ijodi XIX asr oxiri va XX asr

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б.137.

boshlaridagi o'zbek adabiyotida demokratik tamoyillarini egalashida muhim o'rin egalladi.

Muqimiy lirikasi va hajviy asarlari, «Sayohatnomalar» davr adabiyotining etakchi g'oyaviy-estetik yo'nalishini belgilashda etuk adabiy-badiiy asarlar darajasiga ko'tarilgan. Muqimiy ijodi qishloq dehqonlarining vakili, oddiy inson his tuygularining asl kuychisi bo'ldi. SHoir ularning hayotini, dardu tashvishni, orzu-intilishlarini realistik buyoqlarda yuksak badiiylik bilan ifodaladi.

Ijodiy faoliyatini ishqiy gazallar yozish bilan boshlagan shoir o'zbek lirikasi taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. CHuqur gumanizm va optimistik ruh, hayotsevarlik va jo'shqin ehtiros, haqqoniylik va samimiylik, o'ynoqilik va musiqiylik shoir yaratgan g'azal, murabba', muxammaslarining g'oyaviy-badiiy mazmunini belgilaydi.

Muqimiy ko'plab ham g'oyaviy, ham badiiy barkamol satirik va yumoristik asarlar yaratdiki, biz ushbu malakaviy bitiruv ishimizda shoir ijodiy faoliyatining ana shu sohasi hamda uni o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullari haqida fikr yuritishni maqsad qilib qo'ydik.

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida hajviyot yo'nalishi adabiyotimizning o'tmishi davrlarga nisbatan nihoyatda taraqqiy etdi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotda yuz bergan jiddiy siljishlar bilan izohlanadi. O'lkada keng yoyilgan rus madaniyati, fan-texnikasining, hayotdagi o'zgarishlarining ta'siri ostida xalq ongida birinchi navbatda, uning peshqadam namoyadalari dunyoqarashda turmush masalalariga, jamiyat va tabiat hodisalariga yangicha munosabatning tug'ilishi, bir tomondan, ikkiyoqlama ekpluatatsiyaning, adolatsizlikning kuchayib ketishi tabora ko'proq yuzaga chiqa berish, tuzumning tartib qoidalaridan norozilikning zo'rayishi, ikkinchi tomondan, xalqning intilishi

va orzu-umidlariga yaqin turgan demokratik adabiyotda satiraning, satirik yoʻnalishning keng, rivojlanishiga zamin hozirladi. Satirik yoʻnalish, davr lirikasining katta ahamiyatini kamsitmagan holda, aytish mumkinki, maʼrifatparvarlik yoʻnalishi bilan birlikda, oʻzbek adabiyoti qiyofasini belgiladi, uning mohiyatini ifodaladi.

Davr oʻzbek hajiviyotining ana shunday boʻlishidan Muqimiy ijodining ahamiyati katta boʻladi-ki, Zavqiy bilan birgalikda yangi satirik yoʻnalishining asoschisi va etakchi namoyandasi sifatida barakali ijod qildi.

SHoir ijodiy merosini hajm jihatidan katta qismini tashkil etuvchi satira va yumorlari mavzui va shakl jihatdan rang-barang boʻlib, oʻsha davr sharoitining juda koʻp tomonlarini qamrab oladi.

SHoir jamiyatdagi hukumron guruh vakillarining tipik namoyandalari salbiy-satirik obrazlarning katta galeriyasini yaratdi. Sulton Ali Xoʻja va Hakimjonlar, milliy burjuaziya vakili Hodihoʻja va axloqiy buzuvchi Ashurboy hojilar, tovlamachi Viktor va Myaxtinlar, xasis gumashta va poraxoʻr mingboshi, ellikboshilar, isqirt Asrorqul va «chatoqchi hoji»lar, «murdor avliyo» va «shayton, bachagar» din arboblari shoirning hajviy qalami ostida qaytadan «tugʻildilar», oʻzlarining razil basharalarini, kuch mohiyatlarini butun qobahati bilan kitobxonalarga koʻrsatishga majbur boʻldilar.

Muqimiy oʻzbek demokratik adabiyotida satira va yumorni yangi bosqichga koʻtargan shoir boʻladi. SHoir bu yoʻnalishda yangi anʼana yaratdi.

Muqimiyning XIX asr oʻzbek demokratik adabiyotidagi buyuk xizmatkaridan yana biri shundaki, u noma janrining yangi imkoniyatlarini ochib berdi. «Sayohatnoma» oʻzbek adabiyotida tarixan davom etib kelayotgan noma janrining ham shakl va mazmun tomonidan yangicha ifodasi edi.

Biz ushbu malakaviy bitiruv ishimizda shoir hajviyoti hamda uni o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullari haqida fikr yuritishni maqsad qilib qo'ydik. Bitiruv-malakaviy ishda qo'yilayotgan masalaning hali o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligi belgilaydi.

Muammoning o'rganilqanlik darajasi: Muqimiy hayoti va ijodi adabiyotshunoslarimiz tomonidan atroflicha tahlil va tadqiq etilgan. Olimlarimizdan G'.Karimov, A.Abdug'afurov, V.Abdullaev, B.Valixo'jaev kabi adabiyot tarixi tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan.² Uning hayoti va ijodi, lirik va hajviy asarlari, "Sayohatnoma"lari umumta'lim o'rta maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim darslik va o'quv qo'llanmalariga kiritilgan.

Muqimiyning "Tanlangan asarlari"ning ikki tomliqi chop etilgan.³

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan boq'liqligi: Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasining "O'zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o'zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari: Adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik dasturi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda 2015-2016 o'quv yiliga mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim maktablarida Muqimiy hajviyotini o'rgatish usullari mazmunini, shakl va metodlarini nazariy jihatdan takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etishga oid metodik tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning vazifalari: Mavzu talabidan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

² Каримов Г. Муқимий. Тошкент. 1971; Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. Тошкент. 1963; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент. 1976

³ Муқимий. Танланган асарлар. II томлик, Тошкент 1963

- Muqimiyning hajviy asarlar yaratishdagi mahorati va o'ziga xosligini yoritish;
- Muqimiyning hajviy asarlarining mavzu doirasi va g'oyasini o'rganish;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullarining uslubiy asoslarini yaratib, o'rganilayotgan mavzuga yangiliklar kiritish;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning ob'ekti: Umumta'lim o'rta maktabning adabiyot fani darslarida Muqimiyning hajviy asarlarini o'qitish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti sifatida Muqimiyning hajviy asarlari, o'rta umumta'lim maktablari darsliklari manbaviy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi istiqlol va ma'naviyat, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid nazariy fikrlar, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq Ta'limi Vazirligining me'yoriy hujjatlari, sharq mutafakkirlarining ma'naviyat, ma'rifat, axloq va komil inson tarbiyasi to'g'risidagi ta'limotlari, mavzuga oid ilmiy-metodik manbalar bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishida metodik manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, me'yoriy va huquqiy hujjatlar tahlili, pedagogik kuzatishlar, adabiy tadqiq metodining adabiy tanqidiy hamda qiyosiy-tipologik usuli hamda o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yanqiligi: Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangilik darajasi olib borilgan tadqiqotlar biz tanlagan yagona tizim asosida o'rganilmagan edi. To'g'ri, adabiyotshunosligimizda Muqimiy hajviyoti, shoir mahorati haqida ko'plab ishlar qilingan. Lekin, Muqimiyning hajviy asarlari, o'rta umumta'lim maktablarida uni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etgan holda o'qitish masalasi, misollar va ularning tahlilida o'rgatish kabi bir qator qirralarini tadqiqotga kiritilishi tadqiqotning yangiligi hisoblanadi. SHuningdek:

- Muqimiyning hajviy asarlar yaratishdagi mahorati va o'ziga xosligini yoritildi;
- Muqimiyning hajviy asarlarining mavzu doirasi va g'oyasini o'rganiildi;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirildi;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullarining uslubiy asoslarini yaratib, o'rganilayotgan mavzuga yangiliklar kiritildi;
- Muqimiyning hajviy asarlarini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati Muqimiy hajviyotini o'qitishga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar hamda tamoyillari belgilanganligi, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlanganligi bilan izohlanadi. Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan umumta'lim tizimining adabiyot fanini o'qitish jarayonida va uni takomillashtirishda, yangi o'qitish uslublarini joriy etishda, undagi xulosalar va bildirilgan fikr-mulohazalardan, keltirib o'tilgan ko'rsatmalardan o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanlarida, adabiyot yo'nalishiga ixtisoslashgan akademik litseylarda, oliy o'quv yurtlari o'zbek

tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishlarida adabiyot o'qitish metodikasi fanida keng ko'lamda foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Bitiruv malakaviy ishi natijalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar pedagogik amaliyot davrida joriy etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 bob, 6 ta fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 68 betni tashkil etadi.

I BOB

MUQIMIY LIRIKASIDA IJTIMAIY-SIYOSIY HAJVIYOT

1.1. Tarixiy haqiqatning badiiy in'kosi. XIX asrdagi o'zbek demokratik adabiyotidagi hajviyot janrining taraqqiyoti uning rivojlanishi bosqichidagi muvaffaqiyatlari Muqimiy ijodi bilan bog'liq bo'lib, shoirning satirik va yumoristik asarlari hayot haqiqatiga suyanib yozilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Muqimiyning satirik asarlarining qahramonlari adolatsiz tuzumning adolatsiz shaxslari, xalqqa jabr-sitam ko'rsatib boylik orttirishni kasb qilib olgan insofsiz kishilardir. Ijodkorning «Tanobchilar» satirasi faqat Muqimiyning ijodida emas, balki, umuman XIX asr o'zbek adabiyoti tarixida hajviyotning yuqori pog'onasi bo'ldi, desak mubolaga emas. Uning yumorlari va «Sayohatnoma» asari ham xuddi shunday xarakteridagi asar ekanligi adabiyotshunos olimlarimiz yakdillik bilan tan olganlar. G'.Karimov, A.Abdug'offurov kabi adabiyotshunos olimlarimizning kitoblarida bu masalalaga alohida urg'u qilingan. G'ulom Karimovning «Muqimiy», A.Abdug'offurovning «Muqimiy satirasi» kabi risolalarida Muqimiy ijodi, hajviyotdagi mahorati atroflicha tahlil etilgan.

Muqimiy satiralari mazmun jihatdan boy, mavzu jihatdan rang-barangdir. Aytish mumkinki, bu satiralar jamiyat hayotining hamma asosiy tomonlarini qamrab oldi, yuqori tabaqa sinflariga xos bo'lgan hamma ijtimoiy tabaqalarning tipik obrazlarini yaratdi.

Muqimiy hajviyoti markazida «Tanobchilar» she'ri turadi. Bu satira o'zining mavzusi, turmushni aks ettirishdagi badiiy umumlashtiruvchi kuchi bilan demokratik adabiyotdagi hajviy asarlar ichida alohida o'rin tutadi. Unda mustakamlachilik tartiblari hukmronlik qilgan davrda chor amaldorlarning mehnatkash xalqqa qilgan zo'rlik zo'rovonliklari, zulmlari jonli, hayotiy lavhalarda, tipik shaxslar faoliyatida ifoda qilinadi.

“Tanobchilar” satirasi zulmga uchragan oddiy bir dehqonning hikoyasi tarzida yozilgan. Dehqon o‘z boshiga tushgan kulfatlar va zo‘rovonlikni hikoya qilishga kirishar ekan:

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar
Arz etayin endi yozib nomalar.
O‘n ikki oyda keladur bir tanob
O‘zgalarga rahotu menga azob.
Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikov
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav
Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq
Go‘yo xayol aylaki, qilmay nifoq.
Osh esa o‘tada sarson ilik,
Xo‘ja chiroq yog‘i, Xokimjon pilik.
Bir-biriga solishurlar o‘rin,
Erta-yu kech o‘pishib og‘iz-burun
Sallalari boshida oq savet
Ko‘rpacha tagda hamma vaqt uch qavat.
Qaysidir qishloqqa tushar otidin
Elni yigib, voqif etar zotidin.
Derki: Ko‘zingga hali kol jo‘jaman,
Maxtumi a‘zamlik o‘zim xo‘jaman.

CHor mustamlakachiligi tomonidan o‘rinatilgan tartibga ko‘ra har yili dehqonlar o‘z ekinini ekib bo‘lganlaridan so‘ng, ekin maydonini o‘lchash va shunga qarab soliq solish uchun qishloqlarga amaldorlar chiqar edilar. Ekin maydonlarini tanob bilan o‘lchaganliklari uchun ular “Tanobchilar” deb atalganlar edi.

“Tanobchi” nomi bilan chiqqan mustamlakachi ta‘magir vakillar istaganicha zo‘rlik o‘tkazar, poraxo‘rlikni avj oldirib, boylarga yon bosar

kambag'allar erini o'lchashda turli firibgarliklarni ishlatar, xalqni katta soliqlar bilan qiynar edilar. "Tanob" orqali chor hukumatining og'ir soliq siyosati amalga oshirilar edi. Xalq hayotining eng kulfati ko'rinishlardan biri bo'lgan mana shu voqea 68 misradan iborat katta "Tanobchilar" she'rida aks etgan. Muqimiy bu she'rida mehnatkash dehqonlarning og'ir ahvolini ko'rsatish bilan birga, chor malaylari bo'lgan mahalliy amaldorning jirkanch tipik qiyofasini chizib beradi.

"Tanobchilar" satirasining asosiy persanajlari Sulton Alixo'ja bilan Hakimjonlardir. Ular zo'rlik va byurokratizm asosida qurilgan mustamlakachilik siyosatining timsoli sifatida harakat qiladilar. Poraxo'rlik, adolatsizlik, har qanday tubanlik ular qiyofasi uchun xarakterli bo'lgan belgilardir. Muqimiy bu amaldorlarni yolg'iz holda emas, balki o'z "xo'jayinlari"ga suyangan holda, ularga orqa qilgan holda ular nomidan harakat ettiradi, ya'ni satirada tipik sharoit yaratadi.

Bu ikki amaldorning xalqni talash uchun "ittifoq" bo'lib, til biriktirib olganlarini Muqimiy juda ustalik bilan halq iboralari orqali quyidagicha ko'rsatadi:

Sulton Alixo'ja, Hakimjon ikov,
Biri xotun, birisi bo'ldi kuyov.
Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq.
Osh esalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja-chiroq, Hakimjon pilik.

Bundan keyingi misralarda Hakimjon bilan Sulton Alixo'janing er o'lchash uchun qishloqqa chiqib kelishi, o'zlarining nasl-nasablari, amallari, huquqlari to'g'risida do'q urib, "xizmatimizni qilinglar bilib!"-deb pora talab qilish, pora olgandan so'ng ham, dehqonlar erini ortiqcha- "duchordan"

o'lchab ularga zulm o'tkazish tasvirlanadi va shular orqali ularning tipik xarakteri ochiladi.

“Tanobchilar” satirasi o‘zining mavzusi va mazmuni e’tibori bilan zo‘r ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asardir. Uning persanajlari Hakimjon bilan Sulton Alixo‘jalar Muqimiy yaratgan ijtimoiy tiplarning eng muhimlaridan bo‘lib, ular chor hukumati o‘rnatgan mustamlakachilik tuzumining jirkanch mohiyatini o‘zlarida to‘liq gavdalantiradilar.

1.2. Tipik vogelik va tarixiy shaxslar talqini. Muqimiyning chor va mahaliy amaldorlarni fosh qilishga bag‘ishlangan satirik asarlari ichida “Saylov” she’ri ham alohida o‘rin tutadi.

Adabiyot tariximiz uchun “saylov mavzusi” yangilikdir. Zotan, saylovning o‘zi o‘sha davr ijtimoiy hayotida yangi hodisa edi. O‘lkaga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi natijasida ro‘y bergan hodisalarning biri saylov tizimining joriy qilinishi edi. CHor hukumati tomonidan o‘rnatilgan tartibga binoan quyi mansablarga-mingboshi, yuzboshi, qozi va boshqa mansablarga odam tayinlash saylov yo‘li bilan o‘tkazilar va unga “xalq idora usuli” degan “jarangdor” nom ham berilgan edi. Bu ijtimoiy hodisa demakrotik adabiyotda keng aks etdi va bu mavzuda qator satirik asarlar yozildi, ularning bir qismi o‘z vaqtidagi vaqtli matuotda ham bosilib chiqdi. Manbalarda Muqimiy she’rining qachon yozilganini aniqlashda yordam beradigan bir ma’lumot uchraydi: shoir bu mavzuda yozgan asarida mingboshlar saylovi haqida so‘zlab kelib, she’rning oxirida saylov tarixiga oid quyidagi izohni beradi: “Maxfiy qolmasukim, ranji g‘ami voy harflar tarix bo‘lurki, bu saylov shu sanada 1310 hijriyda edi”. Bu izohdan ma’lum bo‘lishicha Qo‘qonda mingboshlar saylovi 1310 hijriyda, melodiylar bilan 1892 yilda bo‘lib o‘tgan. Muqimiyning “Saylov” satirasi ham xuddi shu yili yozilgan bo‘lishi haqiqatdan uzoq bo‘lmasa kerak.

Muqimiy tomonidan adabiyotga olib kirilgan bu mavzuni boshqa shoirlar ham davom ettirdilar. Kapitalistlar, mustamlakachi savdogorlar va mahalliy boylarning kirdikorlarini ochib tashlovchi Muqimiy satiralarining yana biri “To‘yi Iqon bachcha”dir. Ma’lum syujet asosida qurilgan bu satira Iqondagi gumashta bilan Toshkentdagi xo‘jayin o‘rtasidagi, o‘tkazilajak to‘y haqida “sim qoqish” ya’ni telegramma berish voqeasi bilan boshlanadi. Toshkentlik boy telegrammasida aytiladi:

Men rizomas, kishiga non bersang
YO tovuq saqlasangu don bersang
Tuynugingdin agarda chiqsa tutin
Munda ber dastmoyalarni butun.
Bo‘lsa umidingiz agar bizdin
Manfaat ko‘rmasin birov sizdin.

Boyning ko‘rsatmasi Iqondagi gumashta uchun dastur bo‘ladi. To‘y harakatlari osh-suv, dasturxon va boshqa harajatlar shu qadar qisqartirildiki, zotan, to‘y deydigan o‘rni qolmaydi. Maslahat olishga uch kishi, to‘yga etti kishi aytili, ularga «qotgan, mogar, otgan» nonlardan dasturxon yozildi: Muqimiy to‘yning hisob-kitob qilinganini, jami harajat o‘ttiz uch tanga bo‘lganini aytadi va Qo‘qonlik gumashtaga el yurt nomidan «uyatsiz» degan baho beradi. Muqimiy gumashta obrazini zo‘r badiiy mahorat bilan chizadi. Satirada keltirilgan epizodlar oyoq uchida yurib ish bitirish, eng ichida to‘yga odam aytish, ovoz chiqarmay osh damlash, o‘choq boshida yo‘talganning orqasiga kosov bilan tushurish va boshqalar bir maqsad uchun gumashta obrazini yaqqol ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Satiradagi hamma elementlar o‘zining ma’lum g‘oyaviy yo‘nalishga, vazifasiga ega bo‘lish bilan birga, ayni zamonda, satiraning umumiy vazifasiga bo‘ysunadi, uning g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. SHu ma’noda satira goyaviy va badiiy

jihatdan etuk va kompozitsion, tuzilishi jihatidan barkamol asar darajasiga ko'tarilgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoning CHor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'lka kapitalistik munosabatlar doirasiga tortildi. Bu erda paxta tozalash zavodlari, moy zavodlari va boshqa karxonalar qurila boshladi. Bu ijtimoiy hodisalar Muqimiyning «Maskovchi boy ta'rifida» satirasida aks etdi. «Moskovchi boy ta'rifida» satirasi masnaviy yo'lida yozilgan bo'lib, 84 misrasini o'z ichiga oladi. Satiraning asosiy persanaji Qo'qonlik Xodixo'janing zavod qurish niyatida ishga kirishib, qarzga botishi, bergan veksellarining muhlati o'tib kuyinishi, oxirida, uy-joy, er-suvlarning va ham bitmagan zavodini ham arzon bahoda sotilishi, xullas, zavodchi boyning sinishi satira voqeasini asosini tashkil qiladi.

Hodixo'ja - Muqimiy satirasining taniqli va doimiy ob'ektlaridan biri. SHoir Hodixo'ja to'g'risida «Voqea Viktor», «Veksil» va boshqa satiralarida ham so'zlaydi. Muqimiy «Maskovchi boy» satirasida hayotiy voqealarni, Qo'qonlik mulkdor boy Hodixo'ja hayotini bayon qildi. Bu material ma'lum tarixiy sharoitda o'zbekning turmushdagi mavqei va taqdiri uchun xarakterli bo'lganidan Hodixo'ja obrazi chuqur umumlashtirma kuchga ega.

Muqimiy Hodixo'janing tip sifatida ijtimoiy ahvolini, jamiyatdagi faoliyati nuqtai-nazaridan tasvir qilib cheklanmay, uning shaxsiy hayotini, oilaviy turmushni ham tasvirlaydi, shu orqali uning psixologiyasini, hulq-atvorini, xarakterini ko'rsatishga muyassar bo'ladi. Muqimiy tasvirida Hodixo'ja, dastavval o'z boyligidan mag'rur bo'lgan takabbur shaxs. U o'zini hammadan ulug' va ustun hisoblaydi. Rastalarda katta oq sallani o'rab kekkayib ot ustida yurganda odamlar uni, «alloma», «shayx» deb biladilar. U xalq ko'ziga pok ko'rinishga xarakat qiladi-yu, haqiqatda axloqiy jihatdan nopok kishi. U oilaviy hayotda ham jirkanch qiyofaga ega. Boyligining

kuchi bilan, «sim-zarlar to‘kib» go‘rkov qiziga uylangan, lekin erdan yolchimagan go‘rkov qizi ham dodga keladi:

Dedi oh urib:-»Bo‘lsa er hali bu!»
Fig‘onidin el ichra tushdi gulu
«Darig‘aki, baxtim qora bo‘lmasa,
Senga tushmas edim-xudo urmasa!»
CHiqib ichlarida nihon qotishib
Bozo‘r qo‘ydi hamsoyalar bosishib
Valya rastada savlatin ko‘rsangiz
Kim, orziydi shayxi zamon bilsangiz.
Ot ustida marzum qilurlar gumon,
Mudarrislari «Beg»ni deb tosh eshon.
Amomo boshida, sadif jomalar
Xayol aylagaysunki allomalar,
Qilib muxtasar, so‘zni qildim tomom
Malolovar o‘lgay cho‘zilgan kolom.

Hodixo‘ja mulkdor tabaqalar o‘rtasida avj olgan ma‘naviy qashoqlikni, ahloqiy buzqlikni o‘zida mujassamlashtirgan obraz.

Muqimiy o‘z satiralarida mahalliy boylarning obrazlarini chizish bilan cheklanmay, mustamlakachilarning kiradikorini ham dadil fosh etdi. Bu satiralardan jiddiy ijtimoiy muammolarnining qo‘yilishi hamda g‘oyaviy-siyosiy etuklik darajasida hal etilishi uning so‘ngi asarlaridan biri.

«Voqeai ko‘r Ashurboy» satirasida, ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. SHoir bu asarida ohloqiy-maishiy buzuvchi Ashurboy hojining og‘ir jinoyati haqida so‘zlaydi, «Farg‘onada, nomdor, moldor» bo‘lgan bu boyning iflos qilmishlarini yopib ketish uchun hukmdor sinflarning unga qilgan homiyliklarini fosh etadi. . .

Ashurboy hoji tun qorong'uligida kambag'al bir kishining uyiga yashirin kirib, jinoyat qilayotgan bir vaqtda qo'lga tushadi. Lekin jinoyatchining boy bo'lganligi uchun ham butka boshi va mingboshilar uni qutqarib qolmoqchi bo'ladilar. SHu o'rinning o'zida satirik shoirning chor amaldorlari xarakterlarini kichik detallarda ishonchli ochishda katta mahorat ko'rsatganligini qayt qilib o'tish kerak. Misralardagi «chopib kelishlari», «Bostirib uyga kirishlari» detallarda amaldorlarning shunday kutilmagan vaziyatlarda ularning o'zlarini tutishi juda haqqanoiy ifodalangan: bu detallarda ulardagi hovliqish va tahliqa sezilib turadi, uy egasiga nisbatan zo'ravonlik va boy hojiga nisbatan esa laganbordorlik ko'rinadi.

«Holoyiq Ashurboy hajini yashirinib qochmoqchi bo'lganida tutib oladi uni toshbo'ron-»sangsar» qilmoqchi bo'ladi. Bu o'rinda hukmron adolatsizlik o'z kuchini ko'rsatadi. Adalotsizlik esa har sohada turli shaklda ko'rinadi.

Muqimiy o'z satirasida hukmron sinflarning bu zo'ravonliklariga norazilik bildiradi, adolatsizlikni qattiq qoralaydi. Poraxo'rliklarni fosh etadi. SHuning uchun bo'lsa kerak, Muqimiy satiralarining bir qator namunalarida jamiyatdagi bu illatni fosh etuvchi bayt epizodlar mavjud. Avvalo satirik tahlil uchun shunday mavzuning-o'lkada endigina joriy etilgan burjua saylo tizimining qalbakiligini qoralash maqsadida «xo'ja ko'rsin»ga qilinayotgan tadbir ekanini fosh etish maqsadida mavzu qilib tanlanishi bejiz emas. Bu esa Muqimiy dunyoqarashining etukligidan darak beradi, ijodining realistik va xalqchil mohiyatini ko'rsatadi. Muqimiyning bu asari mavjud tuzumning tartib-qoidalarini, undagi qalbakilik va poraxo'rlikni siyosatining hiyla-nayrangni fosh etuvchi g'oyaviy va badiiy jihatdan etuk hajviy asarlari orasida alohida o'rinni egalaydi.

Muqimiyning muxammas shaklida yozgan «Hajvi Bekturboy» asari o'z mavzui, davr adabiyotida, birinchi navbatda, undagi satirik yo'nalishida o'ynagan roli jihatidan alohida diqqatga sazovardir.

«Hajvi Bekturboy» satirasining yaratilishi shuni ko'rsatadiki, Muqimiy o'z davri ijtimoiy hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalarga loqayd munosabatda bo'lmagan, uning o'tkir satirik ko'zi ular mohiyatidagi illatlarni ziyraklik bilan ko'ra olgan hamda xalqchilik pozitsiyasidan fosh etib umum ko'pchilikka havola etgan. Satirada asosiy nayza «makru hiyla ishlatgan» tovlamachi Viktorga qarshi qaratilgan bo'lsa-da satirik shoir pul-boyliklaridan ajrab «singan» savdogar sudxo'rlarga achinish hisini aslo uygotmaydi, balki, aksincha, ularning hamtama', mol-dunyo deb hovliqishlari ustidan zaharli kulgi qo'zg'atadi.

Demak, Muqimiy satirasidagi ijtimoiy-siyosiy hajv jamiyatta o'zining amaliy ta'sirini ko'rsatdi. Janr hajviyoti nafaqat ayrim shaxslar yoki guruhlar, umuman tuzumning illatlarning fosh qiluvchi asarlar sifatida ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

II BOB

MUQIMIY HAJVIYOTINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARDA O‘QITISHNING ASOSLARI

2.1. Davlat ta’lim standarti va o‘qitish usullari. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim tizimi oldiga shaxs tarbiyasi masalasi yanada dolzarb qilib qo‘yildi. “Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, - deyiladi dasturda, insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi”.⁴

Barkamol avlod tarbiyasida shaxsning kadrlar tayyorlash tizimida bosh sub’ekt va ob’ektning “ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi”² sifatida qayd qilinishi ta’lim tizimiga mutloqo yangicha yondashishni taqozo etadi. Jumladan, ta’lim tizimidagi islohotlar, ta’lim mazmunidagi o‘zgarishlar bevosita adabiyot metodikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan iloji yo‘q. Ilgarigi dastur va darslikka qo‘yilgan talablar tubdan o‘zgartirilib, “Davlat ta’lim standartlari” (bundan keyin DTS) barcha qatori adabiyot fanida ham yangicha qarashlar vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davr darsliklarining tuzilishi va mazmuni DTS talablariga to‘liq mos keladi. Lekin ularni mukammallashtira borish hayot talabidir. Darsliklarda berilgan materiallarni yanada to‘ldirish muammosi savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilarning qo‘shimcha materiallarni izlab topish va ularni o‘zlashtirishiga yo‘l ochadi.

Adabiyot darsliklari asosida berilgan barcha savol va topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda qo‘shimcha

⁴ Ўқувчи маънавиятини шакллантириш. –Т. Шарқ нашриёт матбаа концерни. 2000. 31-бет.

² Ўша жойда.

didaktik ilmiy va nazariy manbalardan ham foydalanish zaruratini vujudga keltiradi.

Metodist olimi Q.Husanboeva haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Savol-topshiriqlar o'quvchilarni olamni va insonlarni kuzatishga, ularning holatini his qilishga va nihoyat o'z-o'zini anglashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi ham o'z navbatida o'quvchilarni kuzatib, ularning har biri shaxsining, ma'naviyatining darajasini aniqlab olishiga imkon beradi»⁵ Boshqacha aytganda, savol-topshiriqlar mohiyat e'tibori bilan nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi uchun ham juda muhim ta'limiy didaktik vazifani bajaradi.

Biz ishimizning ikkinchi bobida Muqimiyning hajviy asarlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning muammolarini o'rganar ekanmiz, birinchi galda maktab o'quvchilariga beriladigan mustaqil ishlarning mazmun-mohiyati, o'quvchilarning savol va topshiriqlar ustida ishlashning uslubiy asoslari to'g'risida ayrim fikr-mulohazalarni bildirib o'tishni joiz deb, bildik.

Muqimiyning hajviy asarlaridan "Sayohatnoma"sidan parchalar, "Tanobchilar" hajviy asari o'rta umumta'lim maktablari va Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari DTS, o'quv rejasi, dasturi va darsliklariga kiritilgan. Xususan, "Muqimiy. "Sayohatnoma" asaridan" mavzusida 5-sinfning to'rtinchi choragida 4-soat, "Muqimiy. Lirikasi. "Tanobchilar" mavzusi ostida Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun adabiyot fanidan o'quv dasturlariga kiritilib, 2-soat o'qitish rejalashtirilgan.

O'rta umumta'lim maktabining Davlat ta'lim standartida Muqimiyning «Sayohatnoma»siga quyidagicha talab qo'yilgan:

- Muqimiyning hayot va ijod yo'li haqida ma'lumot.
- Muqimiy "Sayohatnoma" janrining asoschisi sifatida.
- "Sayohatnoma"ning o'z davridagi shuhrati va milliy adabiyot rivojida

⁵ Хусанбоева Қ. «Гулнор опа» муаммоси ва унинг ечими. Тил ва адабиёт таълими. 2004 йил, 6-сон, 12-бет.

o‘rni.

- “Sayohatnoma”da Farg‘ona vodiysi aholisiga xos hayot va ruhiyat manzaralarining berilishi.

- Odamlarga xos illatlarning hajviy yo‘sinda ifoda etilganligi.
- Asarning hajviy yo‘nalishi.
- Obrazlar tasviridagi jonlilik.
- “Sayohatnoma” tilining jozibasi.
- “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Isfaraga” qismida shoirning dunyo mohiyati haqidagi kuzatishlarining berilishi.

- Unda Rafqon, YAkkatut, Isfara singari manzillarda olingan taassurotlarning go‘zal ifodalanganligi.

- Asarning realistik xususiyatlari.
- Asardagi muxtasar hajviy obrazlar.
- Asar tilining ravon va jozibadorligi.
- YOd olish.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o‘quv dasturida “Tanobchilar” asariga esa quyidagicha talab qo‘yilgan:

- Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Muqimiy lirikasi.
- Muqimiy murabbalari (“Emdi sendek, jono, jonon qaydadir”).
- Muqimiy g‘azallarida tabiat tasviri (“Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar”).
- Muqimiy she‘riyatida oshiq dil izhorlari (“Ayrilmasun”).
- SHoirning ijtimoiy norozilik ifoda etilgan asarlari “Tanobchilar” hajviyasi.
- Muqimiyning hajviy obrazlar yaratishdagi mahorati.

Muqimiyning hajviy asarlaridan «Tanobchilar», «Sayohatnoma»larni o‘qitishda birinchi navbatda asarning matni bilan o‘quvchilarni tanishtirib olinadi. SHundan keyin ularni yod olish uchun topshiriq beriladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilarga savol va topshiriqlar beriladi.

SHuni aytish lozimki, savol va topshiriqlar umumta’lim maktablari adabiyot darsliklari va darslik majmualarining barchasida berilgan. Zero, ta’lim-tarbiya tizimida o‘rganiladigan bilim, o‘zlashtiriladigan ko‘nikma va malakalar nazoratini savol-topshiriqlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Hatto, savol-topshiriqlarsiz ta’lim taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi. So‘nggi o‘n yillikda ta’lim tizimida mustahkam o‘rin egallagan test topshiriqlari mazkur muammoning jahon standartlari asosida yanada teran mohiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Adabiyot darsliklari va darslik-majmualarning barchasida ham har bir bob yoki katta mavzudan keyin savol-topshiriqlar berilgan. Darslikdagi matnlar didaktik va ta’limiy yo‘nalishlariga qarab tartib bilan berilgan bo‘lib, ular orasidagi bog‘lanish savol-topshiriqlarda ham o‘z aksini topishi talab qilinadi.

Savol-topshiriqlarning umummetodologik talablarga mosligi didaktik va metodik talablar yuzasidan boyitish mezonlarini belgilash kabi muammolarni etarlicha hal etilmaganligi bu borada jiddiy izlanishlar olib borishni talab etmoqda.

Savol va topshiriqlar ustida ishlash o‘quvchilardan ijodiy faoliyatni, badiiy estetik tafakkur va tashabbuskorlikni talab qiladi. O‘quvchi darslikdagi savol-topshiriqlar ustida mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quv dasturidagi bilimlarni passiv o‘rganuvchidan faol o‘zlashtiruvchiga aylanadi. O‘quvchi savol-topshiriqlar ustida ishlaganda ozmi-ko‘pmi mehnat qiladi, izlanadi, o‘z ehtiyojiga javob topadi. Demak, mehnat bilan topilgan bilim, o‘zlashtirilgan malaka va ko‘nikmalar astasekin o‘zo‘zidan insonning

qalbiga abadiy muhrlanib qoladigan ilmiy, hayotiy dunyoqarash va yuksak axloqiy fazilatlarni tarkib toptiradi.

O'quvchilar orasida suhbatlar o'tkazish, so'rovnomalar hamda ularning natijalarini o'rganish zarur. Umumiy o'rta ta'limda adabiyot fanidan o'quvchilarning o'quv, ko'nikma va malakalarini savol-topshiriqlar ustida ishlash orqali shakllantirish hamda takomillashtirish jarayonining talab va mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Binobarin, savol-topshiriqlarning o'ziga xos turi bo'lgan test topshiriqlarining ta'lim tizimidan mustahkam o'rin egallashi uning mexanizmi ustida ham bosh qotirishni taqozo etadi. Bu borada ta'lim samaradorligiga erishish uchun adabiyotdan savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida:

a) o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab adabiyotning so'z san'ati sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan muayyan tushunchalar hosil qila borish;

b) o'quvchilarning darslik va darslik majmualardagi badiiy, ilmiy va ilmiyommabop matnlarni savol-topshiriqlar vositasida o'zlashtirish usullarini tinmay takomillashtira borish;

v) o'quvchilarning badiiy matnni idrok qilishlarida uning obrazli tafakkur mahsuli ekanligini nazarda tutib ish ko'rish;

g) o'quvchilarning adabiy bilim, ko'nikma va malakalarini sinflar bo'yicha bosqichma-bosqich baholay borish;

Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini o'stirish, ularni axborot texnologiyalari asosida ishlashning ko'p tizimli yo'nalishlarining nazariy asoslaridan foydalanishlariga erishish lozim.

Darslik va darslik majmualarda nazariy ma'lumotlar, badiiy matnlardan tashqari amaliy tajriba va nazorat qilishga doir savol-topshiriqlar ham beriladi.

Demak, «Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»da ta'kidlagan yuqoridagi o'quv adabiyotlarining barcha turlaridan adabiyot darslarida, darsdan tashqari jarayonlarda, nazorat turlarini amalga oshirishda to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishimiz zarur.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ko'rsatilgan umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini berishi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirish to'g'risidagi talab yuqoridagi o'quv adabiyotlaridan to'liq foydalanilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin.

Ayni shu masalalar Davlat ta'lim standartlarida ham qo'yidagi tarzda o'zining chuqur ifodasini topgan:

- matnni to'g'ri, tez va ifodali o'qiy olish;
- 45 ta badiiy matnni yoddan aytib bera olish;
- Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yurita olish;
- mamlakatimiz mustaqilligi va bayramlari haqida ona Vatanga muhabbat uyg'otuvchi adabiy asarlar mazmunini anglagan holda so'zlab berish;
- mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olish;
- berilgan har qanday mavzuda og'zaki va yozma ravishda fikr yurita olish;
- o'qigan asarlardan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish;

- oʻzga insonning tuygʻulari va hissiy kechinmalari xususida fikr yuritish olish;
- turli mavzularda insho yoza bilish;
- hayoti va ijodi oʻrganilgan adiblar tabiatiga xos boʻlgan hislatlarni baholay bilish;
- adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildirish olish va uni asoslay bilish;
- yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning hislatlarini ochib bera olish;
- musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qilish va uni soʻz bilan ifodalab berish;
- oʻrganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos boʻlgan hislatlarni anglab, ularga munosabat bildirish olish;
- asardagi adabiy qahramonlar xususiyatlariga xos boʻlgan fazilatlariga mustaqil fikr bildirish olish;
- oʻrganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarini anglay bilish;
- adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qoʻllay olish;
- adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga toʻgʻri baho bera olish.

Oʻqituvchi va oʻquvchining hamkorligidagi faoliyati asosida adabiy taʼlim jarayoni shakllanishi hamda ularning taʼlim oluvchilar tomonidan toʻliq taʼminlanishi talab etiladi. Bu talablarni bajarishda darsliklardagi savol va topshiriqlar ilmiy didaktik manba sifatida foydalaniladi.

Umumiy oʻrta taʼlim bosqichida oʻquvchilarning ruhiy-jismoniy xususiyatlari ularga ortiqcha pand-nasihat qilish, aql oʻrgatishni koʻtarmaydi. Ayni vaqtda maʼnaviy ezgu fazilatlar, goʻzal insoniy amallar bevosita namuna tarzida koʻrsatilsa va oʻquvchilarga tiqishtirilmasdan ularning

ruhiyatlariga tabiiy ravishda singdirilsa, bu fazilat hamda amallar yoshlar tabiatining ajralmas xususiyatlariga aylanishi mumkin bo‘ladi.

Darslik va darslik-majmualarda berilayotgan savol topshiriqlar ma’lum ma’noda o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham umumiy yo‘llanma vazifasini bajaradi. O‘qituvchi mazkur savol-topshiriqlarga asoslanib o‘quvchilarning mavzu (badiiy, ilmiy, ilmiy-metodik matnlar) yuzasidan o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlaydi, umumiy bilim va tushunchalarni chuqurlashtirishga yo‘llaydi.

Ma’lumki, darslik va darslik-majmua materiallari umumiy ma’noda o‘quv tahlili orqali o‘rganilsada, o‘z mazmuniga ko‘ra shartli ravishda ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil kabi tahlil turlaridan foydalanishni taqozo etadi. Ilmiy tahlil asosan nazariy materiallarga oid bo‘lib, shunga yo‘naltirilgan savol-topshiriqlarda qo‘yidagi maqsadlar nazarda tutiladi:

- mavzuning har tomonlama chuqur o‘zlashtirilishi
- badiiy asarlarning adabiy-nazariy tushunchalar vositasida ilmiy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilinishi;
- darslik materiallarini o‘rganishda qo‘shimcha manbalarga murojaat qilinishi;
- o‘quvchi xulosasining lo‘nda, aniq va mukammal bayon etilishining nazorat qilinishi va hokazo.

N.Karimov va U.Normatovlar qalamiga mansub umumta’lim maktablarining 5-sinf uchun «Adabiyot» darslik - majmuasidagi¹ “Sayohatnoma” asari qator ilmiy nazariy maqolalar mazmun-mohiyatiga ko‘ra asosan ilmiy tahlil asosida o‘rganilgandagina ko‘zlangan samarani berishi mumkin.

Metodik tahlilga doir savol-topshiriqlarda quyidagi masalalar nazarda tutiladi:

¹ . Каримов Н. , Норматов У. Адабиёт. 5синиф учун дарслик–мажмуа. Т. : Ёзувчи. 2001.

- o'rganilayotgan mavzu mazmunining to'la o'zlashtirilishi;
- mavzu mazmuniga ko'ra ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- o'quvchilarning bilim va tushunchalarini aniqlash;
- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, adabiyot predmeti va ayni mavzuga qiziqishi;
- o'quv material mazmuni.

Adabiyot darslarida didaktik tahlilni qo'llash orqali, birinchidan, o'quvchilar qo'yilgan masalani o'rganishga tayyorlanadi, ikkinchidan, darslik va darslik-majmualaridagi badiiy, ilmiy va ilmiy-metodik matnlar ustida ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish malakalarini egallay boradilar, uchinchidan, adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llash hamda o'zlari bajargan mustaqil ishlaridan to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Adabiyot insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turidir.

Maktab o'quv predmeti sifatida adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, uning o'rganish ob'ekti so'z san'ati namunasi bo'lmish badiiy asarlardir. Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan etuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyot darslarida badiiy asarlar o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan, ko'pincha, to'liq, ba'zan parcha holida o'qilishi va faqat matnga tayangan holda tahlil qilinishi lozim. Badiiy asarlar bevosita o'quvchilarning o'zlari tomonidan idrok etilishiga katta e'tibor berilishi kerak.

O'qituvchi o'qitishga emas, balki uni o'qimasa turolmaydigan ruhiy--pedagogik holatga keltirishga urinishi lozim.

Adabiyot o'qituvchilari badiiy asar tahlilining rang-barang usullaridan foydalana olishlari kerak. O'qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil xulosa chiqarishiga intilmasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o'quvchilarning turlicha estetik-axloqiy ma'no topishlariga imkon berish kerak. O'qituvchi biror badiiy asarni tahlil qilishda muayyan sinfdagi o'quvchilarning rivojlanish darajalari, ruhiy holatlari, shuningdek, asarning ta'sirchanlik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish ko'rishi zarur. Tahlilda asosiy e'tibor asarning estetik qimmatini ko'rsatishga, asar badiiyligini ta'minlagan omillarni idrok etishga qaratilishi lozim. Puxta va chuqur estetik tahlilgina o'rganilayotgan asarning o'quvchilar hissiyotiga ta'sirini ta'minlaydi.

O'quv dasturida har bir sinfdagi bajariladigan og'zaki yozma ish turlari hamda miqdori ko'rsatib o'tilgan. Bu ish turlari badiiy asarlarni o'rganishdan kelib chiqadi va badiiy asarlarni tahlil etishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rgatadi, ularning tasavvur olami va estetik hissiyotlarini rivojlantiradi, badiiy asarlarni tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Shuningdek, og'zaki va yozma ishlar katta ma'rifiy ahamiyatga egadir. Bu ishlarni bajarishda o'quvchilarning o'zbek tili predmeti bo'yicha egallagan bilimlari ko'nikmaga, ko'nikma malakaga aylanadi. Savodli yozma nutq shakllanadi.

Adabiyot fani o'qitishda ko'pincha o'quv lug'atlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Adabiyot fani yuzasidan o'nlab ilmiy – didaktik adabiyotlar yaratilgan:

1. V.Rahmonov «O'zbek klassik adabiy asarlari uchun qisqacha lug'at». Toshkent. «O'qituvchi», 1983 yil.
2. J.Lapasov «Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati». Toshkent «O'qituvchi» 1994 yil.

3. B.Hasanov «Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at», «Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati» kabilarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Bu yaratilgan lug‘atlardan o‘quvchilar asar mazmunini tushunishga, mustaqil ravishda asarlarni o‘qiganda, yohud matnda notanish so‘zlar uchraganda foydalanadilar.

Adabiyot nazariyasidan topshiriqlarni bajarishda «Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati»dan foydalanadilar. Lekin bu yaratilgan lug‘atlar alfavit tartibida bo‘lib, o‘quvchilarni manbalar bilan ishlashda etarli ma’lumotlarni bermaydilar. YUqorida keltirilgan uchta lug‘at ham mumtoz adabiy asarlarni o‘rganishga mo‘ljallangan.

Hozirgi adabiy asarlarni o‘qiganda, o‘quvchilar notanish so‘zlarga duch keladilar. Ular uchun lug‘at yaratilmagan. O‘quv lug‘atlarini yaratish ishlari boshqa fanlarga nisbatan adabiyot fanida bir muncha yaxshi olib borilgan. Lekin bu yaratilgan lug‘atlar to‘liq o‘quv leksikografiyasi talablariga javob bermaydi. Lug‘atlar faqat alfavit tartibida tuzilmaydi, aksincha, mavzu joylanish yuzasidan ham ideografik lug‘atlar, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida sinovdan o‘tgan lug‘atlar tuzish mumkin.

Savol-topshiriqlar asosida o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini o‘stirishda adabiy-nazariy tushunchalarni lug‘at daftariga yozdirish muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki darsliklardagi savol-topshiriqlar to‘liq didaktik va metodik talablarga javob berishini taqozo etadi.

O‘quvchilarining ilmiy tafakkurini faqat adabiyotshunoslikka oid darsliklardagi «Nazariy ma’lumotlar» asosida emas, balki fanlararo bog‘lanish yuzasidan ham shakllantirish mumkin ekan. SHuni e’tiborga olib, lug‘at daftarining ikkinchi bir yo‘nalishini adabiyotshunoslikka aloqador bo‘lgan terminlar izohli lug‘ati deb yuritsa maqsadga muvofiq bo‘lar ekan.

O'quvchi «Tanobchilar» satirasidagi xalq qahramonlarini boshqa manbalarda ham o'rganishi mumkin, lekin etnografiya, toponimiya, lingvistika, numizmatika fanlari bilan aloqadorlikni boshqa doston va folklor asarlarida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Chunki boshqa asarlar syujeti va mazmunida bu kabi manbalar bo'lmashligi mumkin. Shu sababdan ham har bir badiiy asarning o'z ilmiy xususiyati mavjudligini adabiyot o'qituvchisi teran anglashi zarur.

Adabiyot o'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyillari adabiyot predmeti va barcha bo'limlarini muayyan tartibda o'rganishga, o'quvchilarning bilim olish va mantiqiy fikrlash faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham engillashtiradi. Shu nuqtai nazardan ham Davlat ta'lim standartlari, adabiyot o'quv dasturi va adabiyot darsliklarini yaratishda ushbu tamoyillarga amal qilinadi.

Adabiy ta'lim jarayonida tizimlilik va izchillik tamoyillari tahlilida asosiy e'tibor har bir darslikning bo'limlari orasidagi, hatto darsliklararo uzviylik, tizimlilik muammolariga qaratiladi.

Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, har qanday darsning o'quvchilar uchun jonli va qiziqarli o'tishi ko'p jihatdan ularga beriladigan savol-topshiriqlarning ma'no mazmuni hamda maqsadiga bog'liq. Har bir mavzu yoki badiiy asar yuzasidan beriladigan savol-topshiriq o'quvchilar uchun tushunarli, aniq va lo'nda bo'lishi talab etiladi. Savol-topshiriqlar orqali o'quvchilarning diqqati markazlashtirilgan holda asosiy masalaga jalb etilsa, ularning faolligi oshadi. Natijada ular har bir savol-topshiriqqa aniq va to'g'ri javob qaytarishga harakat qiladilar.

O'qituvchi darslik-majmuadagi savol-topshiriqlar asosida badiiy asar tahliliga doir savol-topshiriqlar tuzishda quyidagi masalalarni diqqat markazida tutish zarur deb o'ylaymiz:

1. Adabiy-badiiy (nazariy) matnning murakkabligi darajasi .

2. O'rganilayotgan matnning hajmi
3. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim saviyasi, turmush tajribasi.
4. O'rganiladigan mavzuga dastur bo'yicha ajratilgan o'quv soati.

Dars jarayonida badiiy asar tahliliga doir beriladigan savollarni o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Taxminiy savollar.
2. Tahliliy savollar.
3. Umumlashtiruvchi savollar¹.

Metodist olim o'quvchilarni badiiy asarni mustaqil ravishda tahlil qilishga yo'naltiriladigan savollarni taxminiy savollar deb va bu xildagi savollar asar qahramonlari tarkibini, asar qismlarini, syujet unsurlari hamda yozuvchi tomonidan ilgari surilgan muammolarini aniqlashga mo'ljallanadi deb tushunadi.

Muqimiyning «Sayohatnoma» asarini o'tganda dars jarayonida tahlil qilishdan oldin mazkur asar yuzasidan o'quvchilarning tasavvurlarini aniqlash maqsadida quyidagicha taxminiy savollar tuzish mumkin:

- Muqimiyning «Sayohatnoma»si qachon yaratilgan?
- Asarda qanday masalalar tasvirlangan?
- Asarda ishtirok etgan asosiy qahramonlarni sanang.
- Asar voqealari asosan qaerlarda bo'lib o'tadi?
- Asar nima uchun «Sayohatnoma» deb nomlanadi?

Ushbu savol-topshiriqlar asarda qo'yilgan masalalarni aniqlashga, o'quvchilarni asar qahramonlari tarkibi, syujet va kompozitsiya, xarakterlar xususidagi ilk taassurotlarini umumlashtirishga, ba'zi bir muhim muammolarni nomuhimlaridan ajratishga yordam beradi. Bu xildagi taxminiy savol topshiriqlar asar tahlilidan oldin ma'lum ma'noda tayyorgarlik

¹ Голубков В.В. Методика преподавания литературы –М.: Учпедгиз, 1962.С.302.

bosqichini o‘taydi. Lekin adabiyot darslaridagi barcha savol-topshiriqlarning tahliliy maqsadga yo‘naltirilishini unutmash lozim.

O‘qituvchi ma’lum bir maqsad ko‘zda tutilgan savol-topshiriqlar orqali badiiy asar mutoalasi jarayonida tug‘ilgan taassurotlarni umumlashtiradilar, badiiy asarlarning so‘z san’ati sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga urinib ko‘radilar.

Taniqli rus metodisti V.Golubkov tomonidan «tahliliy savollar» tarzida tavsiflangan ikkinchi guruhga mansub savol-topshiriqlar badiiy asarning umumiy mazmunini aniqlash, asosiy qahramonlar xarakteri evolyusiyasini belgilash, asar kompozitsiyasi, syujet qurilishi hamda badiiy til xususiyatlarini tahlil qilishda yaqindan yordam beradi. Uchinchi guruh savol-topshiriqlari umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega. Ular asarning ijtimoiy-tarixiy, badiiy – tarbiyaviy mohiyatini ochish, yozuvchi uslubi, badiiy mahorati qirralarini aniqlashga yo‘naltirilishi bilan g‘oyat muhim ilmiy metodik ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, biror yozuvchi ijodining boshqa yozuvchilar ijodidan farqli jihatlarini taqqoslab o‘rganishda, katta hajmli badiiy asarni yoki yozuvchi ijodini to‘la o‘rganib bo‘lgandan keyin takrorlash va mustahkamlash darslarida ham umumlashtiruvchi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Masalan: Muqimiyninig Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o‘quv dasturida o‘rganiladigan «Tanobchilar» hajviy asariga doir tahliliy savol-topshiriqlarni quyidagi tarzda tuzish mumkin:

1. Muqimiyninig «Tanobchilar» asari qachon yozilgan?
2. Asarda qaysi davr voqealari aks etadi?
3. Asarning bosh qahramoni bo‘lgan Sulton Ali bilan Hakimjon obrazini, uning hatti-harakatlarini va fe‘l-atvorini qanday baholaysiz?
4. Sulton Ali bilan Hakimjon xarakteriga xos xususiyatlarini satira matnidan misollar keltirib izoxlang.

5. Satira qahramonlarining portreti va tilining o'ziga xosligini izohlang.
6. Satiraning kompozitsion tuzilishini aniqlang.

Agar o'qituvchi ushbu savollarni oldindan tavsiya qilsa, o'quvchilar «Tanobchilar» satirasini to'la va atroflicha tahlil qilishga o'rganadilar.

Savol-topshiriqlar, odatda, so'roq, buyruq va tasdiqlash shaklida tuziladi. Masalan, «Siz Muqimiyning qaysi asarlarini o'qigansiz?», G'azallarining bosh qahramoni kim? savollari savol-topshiriqlarning so'roq shakliga misol bo'lsa, «Muqimiyning «Tanobchilar», «Sayohatnoma»ining g'oyaviy mazmunini aytib bering» kabi topshiriqlar buyruq xarakteriga ega.

Tasdiqlash ma'nosidagi savol-topshiriqlar asosan darak gap shaklida yaratiladi. Masalan, «Muqimiy ma'rifatparvarlik davri o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi», «Tanobchilar» -satirik» va hakoza.

O'qituvchi darsda savol-topshiriqlarning qaysi turini qo'llamasin, adabiyot predmetining vazifalari va o'ziga xos xususiyatlarini hamisha diqqat markazida tutishi lozim.

Savol-topshiriqlar quyidagi talablar asosida tuzilsa, samarali bo'lishiga ishonch hosil qildik.

- o'quvchilarni mustaqil va atroflicha fikr mulohaza yuritishga majbur qilishi;
- o'quvchilarning bilim saviyasi va hayotiy tajribasiga mos bo'lishi;
- o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va axloqiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qilishi;
- o'quvchilarning badiiy estetik tafakkurini yuksaltirishga yordam berishi;
- nutqini boyitishi.

Savol-topshiriqlar, odatda, so'roq, buyruq va tasdiqlash shaklida tuziladi.

Tasdiqlash ma'nosidagi savol-topshiriqlar asosan darak gap shaklida yaratiladi.

Savol-topshiriqlar mazmun mohiyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi:

1. O'rganilgan mavzu yuzasidan suhbat o'tkazish, takrorlash orqali bilimlarni mustahkamlash.
2. O'quvchilarning bilimlarini, adabiy-nazariy tushunchalarini mustaqil o'zlashtirishlariga yordam beradi.
3. O'quvchilarning nutq madaniyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini yuksaltirish.
4. O'quvchilarning faolligini oshirish, o'quv-biluv ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
5. O'quvchilarni o'zaro ishonch, mustahkam e'tiqod va jamoatchilik ruhida tarbiyalash.
6. Dastur bo'yicha o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzuni atroflicha tahlil qilish, tahlil jarayonida asosiy masalaga urg'u berish, muhimni nomuhimdan ajratish mavzu yuzasidan tegishli xulosa chiqarish.

Ma'lumki, darslik, darslik-majmua yoki o'qituvchining o'zi tuzgan har qanday savol-topshiriqlar o'rganilayotgan matn bilan chambarchas bog'liq va asosan o'quvchilar anglashi mushkulroq masalalarga qaratilishini mantiqning o'zi talab qilib turibdi. Amalda aksariyat hollarda o'rtadagi munosiblikning buzilishini ko'rish mumkin. Savol-topshiriqlarning sodda-murakkabligidan qat'iy nazar, o'quvchilar maxsus tayyorgarlik ko'radilar. O'qituvchi o'zining pedagogik tajribasidan kelib chiqqan holda savol-topshiriqlarni mavzuni o'rganishga kiritishdan oldin, o'rganish davomida yoki mavzu bilan tanishgandan so'ng berishi mumkin.

Adabiy mavzuni o'rganishga kirishishdan oldin savol-topshiriqlar berishda quyidagilar talab qilinadi:

1. Matn bilan tanishishdan oldin savol-topshiriqlarni sinchiklab o'rganish.
2. Asar matni bilan tanishish jarayonida savol-topshiriqlardagi asosiy masalalarga diqqate'tibor qaratish.
3. Savol-topshiriqlardagi masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarishga tayyorgarlik ko'rish.
4. O'rganilayotgan asar bilan muqaddam o'rganilgan asarlarni qiyosiy tahlil qilishga tayyorgarlik ko'rish.
5. O'quvchilarni ijodiy tafakkur qilishga o'rgatish .

U yoki bu mavzuni o'rganish jarayonida beriladigan savol-topshiriqlar ko'proq dialogik xarakterda bo'lib, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini asosiy masalaga qaratishga yordam beradi, faollikka o'rgatadi, uzoq vaqt mulohaza yuritishni taqozo qilmaydi.

Mavzu bilan tanishgandan so'ng beriladigan savol-topshiriqlar o'quvchilardan mulohazakorlikni, o'z fikrini mantiqiy izchillik va misollar bilan dalillashni taqozo etadi.

Buning uchun o'quvchilar savol-topshiriqlarda bayon etilgan muammolarni puxta o'rganib chiqishlari, matn bilan tanishish jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtirishi, muayyan tizimga solishi lozim.

Tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchi faoliyatini bir-biriga bog'laydigan muhim vosita bo'lib, u ta'lim olayotganni o'quv jarayonining sub'ekti (faol ishtirokchisi)ga, o'qituvchini esa shu jarayonning boshqaruvchiga aylantiradi.

Ijodiy topshiriq bilimlarni mustaqil egallash ehtiyojini yuzaga keltirishda muhim poydevordir. Topshiriq ijodiy xarakterda bo'lmasa, o'quvchi mustaqil bilim olishga ehtiyoj sezmaydi. Tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari o'z xarakter xususiyati bilan masalaga o'xshaydi.

O'quv topshiriqlarining mustaqil bilim olishga yo'naltirilishiga alohida e'tibor berayotganini sezish qiyin emas. Agar savol-topshiriqlarda bir og'iz so'z bilan tasdiqlash («ha») yoki inkor («yo'q») ma'nosi ifoda qilinsa, dars shubhasiz, o'quvchilar uchun o'ta zerikarli va ixlosni qaytaradigan ish bo'ladi.

O'qituvchi savol-topshiriqlarni barcha o'quvchilarga baravar berish ham, yakka tartibda murojaat qilish ham mumkin. Hadeb ilg'or o'quvchilardan so'rash metodikaga butunlay xilofdir. Chunki shunday yo'l tutilganda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning butunlay hafsalasi pir bo'ladi, boshqalarda esa loqaydlik va manmanlik illatlariga keng yo'l ochiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish ham ijobiy natija beradi. Masalan, savol-topshiriqlar yozilgan jadvallar, dars mavzusiga oid rasmlar, yozuvchilarning hayoti va ijodi ko'rsatilgan plakatlar, fotoalbomlar, multimediyalar, adabiy asar qahramonlarining tavsifnomasi, syujet unsurlari, yozuvchi qo'llagan badiiy-uslubiy izlanishlar, nutqiy tavsifnomalar jadvali, yozuvchi yashagan va ijod qilgan joylarning jug'rofiy haritasi va boshqalar.

“O'qituvchi – deb yozadi metodist N.G'ulomova, - har bir asar matni yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlar yordamida bolalarning har birini o'z darajasida fikrlashga, hayotiy yoki asar haqiqatini uning tahlili davomida o'zi kashf etishiga imkon yaratish kerak... Jo'yali savolga qandaydir tushunib etilmagan teranlik bo'ladi”.⁶

Darslik va darslik-majmualardagi hamda o'qituvchilar tomonidan tuzilgan qo'shimcha savol-topshiriqlar ustida ishlash yuzasidan o'tkazilgan sinov-tajriba ishlari jarayonida shunday xulosaga keldiki, savol-topshiriqlar

⁶ Гуломова Н. Адабиёт дарсларида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш. Тошкент. 2003. 23-бет

ta'lim tizimida u yoki bu fan asoslarini chuqur o'rganish, o'tilgan mavzularni atroflicha o'zlashtirish bilan bog'liq g'oyat muhim didaktik vazifani bajaradi. Tabiiyki, savol-topshiriqlarning bu vazifani bajarishi ilmiylik, mantiqiy izchillik, uzviylik tamoyillari asosida yaratilishiga o'qituvchi va o'quvchilarning tayyorgarligi darajasiga, hamkorlik aloqalarining yaxshi yo'lga qo'yilishiga bog'liq.

Savol-topshiriqlarning o'tilgan mavzuni shunchaki qayd qilish, takrorlash darajasida bo'lishi fan asoslarini pishiqpuxta o'zlatirishga g'ov bo'ladi.

Tahliliy va taxminiy savol-topshiriqlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra ko'proq fandagi xususiy muammolarni o'rganishga yo'naltirilsa, umumlashtiruvchi savol-topshiriqlar yakuniy fikr mulohazalarga tayanishi bilan o'quvchilar dunyoqarashini boyitish, tafakkurini yuksaltirishga yordam beradi. O'quvchilarning savol-topshiriqlar ustida mustaqil ishlashlari natijasida o'zlashtirgan bilimlari ishonchli bo'lganligi tufayli uzoq vaqtlar xotiralaridan o'chmaydi.

Savol-topshiriqlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari bo'yicha farqlanadi. 5-6-sinf adabiyot darsligidagi savol-topshiriqlar yuqori sinf adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlardan tubdan farq qiladi. Bu savol-topshiriqlar soddadan murakkabga tamoyiliga asosan sinflar osha chuqurlashib, murakablashib boradi. Ta'lim tizimidagi bunday izchilik, shubhasiz darsliklardagi savol-topshiriqlarda ham o'z aksini topgan. Agar darsda o'tilgan mavzuni o'quvchi o'zi mustaqil qaytadan ko'rib, o'rganib, takrorlab chiqmas ekan, olgan bilimlari tezda yoddan chiqadi. Demak, savol-topshiriqlar ma'lum ma'noda o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni takrorlash orqali mustahkamlashga qaratiladi.

Savollarning me'yoridan ortiq bo'lishi o'quvchilarni charchatib qo'yadi, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini susaytiradi. Bu esa mavzuning

o'zlashtirilishiga, ayrim muhim masalalarni nomuhimlaridan ajratishga halal beradi.

Ba'zi o'qituvchilarimiz o'quvchilaridan faqat matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarga javob berishini talab qiladilar. Bu to'g'ri emas. Chunki o'quvchi savol-topshiriqlarga javob berish bilangina cheklansa, ijodiy mustaqil fikr yuritishdan maxrum bo'ladi va taraqqiyotga loqayd o'sadi. Buning uchun avvalo, o'qituvchi har tomonlama etuk bilimga ega bo'lishi, o'z aytgan fikrini isbotlay olishi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishi va nihoyat o'zi bilgan bilimlarni o'quvchilar ongiga singdira olishi lozim. Shundaygina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar orqali munozara darslari o'tkazish mumkin. Bunda suhbat metodidan foydalaniladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, tafakkurini kengaytirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara darslarida o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Bu darsning samarali bo'lishida o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi katta rol o'ynaydi. Demak, munozara darslari o'qituvchi + o'quvchi faoliyatida o'z aksini topadi.

Xullas, savol-topshiriqlar ixcham, aniq o'quvchining yoshiga mos, tushunarli holda tuzilsa, o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashiga, og'zaki va yozma nutqini, tafakkurini shakllantirishga erishiladi. Adabiyot darsligidagi savol-topshiriqlar aniq maqsadga karatilishi hamda konkret va ixcham bo'lishi lozim. SHu o'rinda ta'kidlash kerakki, ular «ha», «yo'q», «yaxshi», «yomon» kabi javob berilishi darajasida tuzilmasligi lozim.

2.2. Hajviyot janri va o'qitishning interfaol usullari. Bugungi o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma'ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari,

ta'lim beruvchi o'yinlar, o'quv-munozaralari, ta'lim jarayonidagi rag'batlantirish va tanbeh berish, o'quv materialini muammoli tarzda o'rgatish, muammoli suhbat, tadqiqotlar, kitob bilan mustaqil ishlash, ta'limda zamonaviy mashinalardan foydalanish, og'zaki so'rov, yozma ishlar, ijod, dasturlashtirilgan ta'lim, mustaqil nazorat ishlari singari usullar u yoki bu darajada tushunarli. Lekin bugungi pedagogika nafaqat etuk, bilimli mutaxassis, balki sog'lom ma'naviyatli **shaxs**, barkamol **inson** shakllantirishni talab qilmoqda.

Ta'limning muammoli, suhbat, tadqiqot, evristik, metodlari zahirida mustaqil va mantiqli tafakkur faoliyati mavjud bo'lgani uchun ham ular ta'limning mantiqiy metodlari deb nomlanadi. Adabiy ta'limda ularning barchasini qo'llash asnosida o'rganilajak asarlarning adabiy-badiiy tahlili yotadi. Darslarda badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish u yoki bu darajada mustaqil fikrlashni talab qiladi. SHuning uchun o'quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ya'ni darsda ham an'anaviy topshiriqlarni bajarishda ham, uy vazifalarini qilishda ham foydalanish kerak. O'quvchida mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

Bugungi milliy pedagogikaga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi. Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan «Aqliy hujum», «6x6x6», «Klaster»,

«Qarorlar shajarasi» singari metodlarning ayrimlaridan adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas.

Aqliy hujum – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli echimlar topishga imkon yaratadi. Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'ylash jarayonidagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar manfaatdorlik yo'lga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytish, kashfiyotlar qilishni o'ylamay qo'yadilar.

2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar topishga yo'naltiriladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir o'quvchi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni birlashtirish yoki o'zgartirish, ko'pincha, asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqliy hujumdan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi.

2. G'oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi.

3. Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.

4. Ish jarayoni belgilab olinadi:

a) g'oyalar baholanmaydi;

b) fikrlashga to'liq erk beriladi;

v) g'oyalar ko'p va xo'p bo'lishiga (miqdorga) intilinadi;

g) o'quvchilar faoliyati «ilg'ab oling», «ilib oling», «g'oyalarga asoslaning», «qo'shing», «kengaytiring», o'zgartiring» singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;

5. Qo'yilgan muammo yuzasidan fikrlar so'raladi va yozib boriladi;

6. O'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga aslo yo'l qo'yilmaydi;

7. Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli erga osib qo'yiladi;

8. G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;

9. SHundan so'ng yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

«6x6x6» adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biridir. Mazkur metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. YAngi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan

xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. SHu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini ta'minlovchi metodlar orasida muammoli ta'lim metodi muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun bu metodga tadqiqotning alohida bir bobi ajratildi. Quyida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda qo'llaniladigan mantiqiy metodlarning suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv turlari va ularning xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Suhbat metodi o'quvchi tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda muammoli ta'limdan keyingi asosiy metod hisoblanadi. Metodika ilmida suhbatga bag'ishlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A.Tojievning "Adabiyot darslarida suhbat" qo'llanmasida adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda suhbat metodining o'rni va ahamiyati ochib berilgan.⁷ Lekin bu ishlarda ta'limning oldiga boshqacha maqsadlar qo'yilgan. Suhbatning vazifasini belgilab, unga tayyorlanish davomida o'qituvchi o'quvchilar oldiga vazifa qo'yib, masalani mustaqil ravishda, to'g'ri hal etishga yordam beradigan savollar tuzadi. Suhbat metodi adabiy ta'limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o'zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo'l keladi. O'quvchilar suhbat savollariga hamisha ham asoslangan, jiddiy javoblarni beraverishmaydi. Savollarga o'quvchilarning to'laqonli javoblar berishida o'qituvchining yordamchi savollari qo'l keladi. Bunday vaziyatlarda bitta fikrga aniqlik kirituvchi, o'sha fikrni rivojlantiruvchi bir yoki bir nechta savol beriladi.

⁷ Тожиев А. Адабиёт дарсларида суҳбат. –Тошкент, Ўқитувчи, 1997

Suhbatni elvizak metod ham deyishadi. U badiiy asar tahlili jarayonida, har bir sinfda qo'llaniladi. YUqori sinflarda suhbat metodi o'quvchilarning mustaqil ishlari va ma'ruzalari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Suhbatga tayyorlanishda o'qituvchi o'quvchilar bilan jonli suhbat jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarga, tayyorlagan savolini vaziyatga qarab o'zgartirishga tayyor turishi kerak.

Ta'limning mustaqil fikrlashga undashda qo'l keladigan evristik metodi o'quvchining oldiga masalalar qo'yish, ularni tekshirish va hal etish metodikasi, yordamchi savollar vositasida o'qitish usuli hisoblanadi. Evristik metoddan foydalanganda o'qituvchi o'quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to'liq qo'llashi mumkin. Faqat uning tarkibini qo'shimcha bilim olishga yo'naltiradigan savollar bilan to'ldiradi. Mazkur metod tahlili shuni ko'rsatadiki, u suhbat metodiga daxldor bo'lgan barcha usullarning birgalikda qo'llanilishini talab qiladi. Bunda savol-topshiriqlarning mantig'i va vaqt masalasida bir oz tafovut bo'ladi. Evristik metodda etakchilik qiladigan savollar qo'zg'atuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi buni bajaring, buni kuzating, topshiriqning savollariga javob bering, ma'lumot oling, aytilgan ishlarni bajaring, xulosalarni taqqoslang, xulosa chiqaring kabi ko'rsatmalar bilan ta'minlanganda, o'quvchilarning fikrlash va bilim olish mustaqilligini anchagina ko'tarishi ma'lum bo'ladi. Bolalar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish singari ish turlarini yangi vaziyatga ko'chiradilar, shu bilan birga ma'lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to'playdilar, xulosalar chiqaradilar, ma'lum masalani hal qilish bosqichidagi o'z faoliyatini rejalashtiradilar. Bu o'qitishning yangi usullari bo'lmish bilimlarni faollashtirish, metodlarni ustma-ust qo'llash kabilarni kiritish zaruratini tug'diradi.

Adabiy ta'lim jarayonida qo'llanilgan evristik metod o'quvchilarning bilim olishi va tafakkuridagi mustaqillikning nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlaydi, ularda mustaqil mulohazalar yuritish, muhokama qilish, xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi. Muhokama bu metodning mustaqil fikrlashni amalga oshirishdagi asosiy shakli sanaladi.

Adabiyot o'qitishda o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirishda tadqiqot metodi o'quv jarayonida bir muncha qiyin hisoblangan nazariy yo'nalishdagi masalalar ko'tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning yuqori bosqichida ta'limning samarali amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo'llash talab qilinadi. Bunda o'quvchilar dalillar to'plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish kabi amaliy ishlarini bajaradilar. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shunda ko'rinadiki, "kashfiyot" avvaldan ajratilgan materiallar tahlilidan keyin, faktik materiallar umumlashtirilganidan so'ng amaliy ish jarayonida sodir bo'ladi. Bunda tadqiqot topshirig'i – o'quv-biluv faoliyatining to'liq turkumini o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zlari bajaradilar. YA'ni ma'lumot to'plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan ishlarni qilish nazarda tutiladi.

Keyingi paytlarda adabiy ta'lim amaliyotida "noan'anaviy dars" nomini olgan bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya dars, sayohat darsi, nazm darsi, suhbat darsi, tahlil darsi kabi dars turlari keng tarqaldi. Ta'limning bunday turi umumta'lim maktablarida va Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari adabiyot darslarida samarador ekaniga shubha yo'q. Adabiyot darslarida, u ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolani ijodga yo'naltirish (ertak, hikoya, she'r, topishmoqlar to'qishga undash), turli mavzularda insho yozishni topshirish, mustaqil ishlar, uy

vazifalarini mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan shakllarda berish ham bu borada salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Adabiy ta'limda tarbiyalanuvchilarni ijodga undash ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda etakchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli narsa – kattalarning ular bilan o'ynashi. Odatda, bizning kattalar bolalar bilan o'ynamaydilar. Ularning «jiddiyroq» ishlari ko'p. Aslida, bolalarga o'rgatish, ularni o'qitish emas, aynan ular bilan birgalikda o'ynash, ularga o'xshab xayolparastlik qilish, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar to'qish, har xil hodisalar o'ylab topishga o'rgatish ularning ma'naviy shakllanishida ko'proq foyda keltiradi. Bolalarning aqliy rivojlanishini, yuksak orzular qilishga va ularni amalga oshirishga qodir bo'lishini istagan har qanday odam ularning ijodga oshno bo'lishini ta'minlashi kerak. Ijodkorlik mustaqil fikrlashga o'rgatish asosidir.

O'quvchilarni reja tuzishga o'rgatishda esa ularga quyidagicha yo'nalishni taklif etish mumkin: a) berilgan matnni ikki marta to'liq o'qib chiqish; b) birinchi o'qishda matndagi asosiy fikrni aniqlash, o'qish jarayonida zarur raqamlar va yangi so'zlarni eslab qolish yoki qayd etish; v) ikkinchi o'qish jarayonida asosiy fikrlarni topish, materialni ma'noli bo'laklarga bo'lish va ularning har birini nomlash. Matndagi asosiy fikrlar anglashilgandan keyingina uning rejasini tuzishga kirishiladi. Murakkab masalalarga duch kelinganda, alohida mustaqil umumlashmalar, xulosalar chiqarish kerak bo'lganda, ko'pchilik o'quvchilar reja tuzishga qiynalib qoladilar. O'qilgan asar yuzasidan asosiy fikrni ilg'ab olish va uni mantiqiy qismlarga ajrata bilish hamisha ham oson amalga oshavermaydi. Reja bandlarini shakllantirishda ular ko'proq kitobiy tilga tayanadilar, ifoda tarzida kitobga qaramlik sezilib qoladi. SHuning uchun ham o'quvchilarni boshlang'ich sinflardayoq reja tuzish va uning bajarilishini qat'iy nazorat qilishga odatlantirish lozim.

Adabiyot darslarida o'quvchini badiiy asarda nima aytilganiga emas, balki qanday aytilganiga ham diqqat qaratishga o'rgatish lozim. U tabiat tasviri go'zalligi, qahramonlar ichki kechinmalari ifodasi nozikligi, muallif tilining injaligini ham kuzatishi, ham sezishi kerak. Adabiyot darslarida, asar tahlili mobaynida shunday narsalarga e'tiborli bo'lgan o'quvchi ijod jarayoni bo'lmish insho bitishda o'ylanadi, izlanadi, bilganlaridan foydalanadi. Bola shularni tuysa, ma'naviyati to'kisroq shakllanadi. Zero, o'quvchilarda dunyoqarash shakllanishi ayni shu yoshga to'g'ri keladi.

O'quvchi yozgan insholarning mazmunli bo'lishida asarning qaysi o'rinlari muvaffaqiyatli chiqqanini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda bunday topqirlikni shakllantirish va rivojlantirish o'qituvchining burchi hisoblanadi. Bunga «Menga yoqqan sahifa», «Asarni o'qish menda qanday tuyg'ularni qo'zg'adi», «Asardagi menga eng yoqqan jihatlar» singari mavzularda insho yozdirish bilan erishish mumkin. O'quvchilar inshoda kitobdan, o'qituvchi ma'ruzalaridan olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotda qo'llashi ham mumkin. Bu bilimlar bolaga yo'nalish berib, fikrlashini tizimga solishga ko'maklashadi. Aks holda, bunday insho to'la mustaqil fikrlash mahsuli bo'la olmaydi.

O'qituvchi o'quvchilarni o'z ishlarini rejalashtirish, uni bajarish, bajarilgan ish natijalarini tekshirishga o'rgatish bilan bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantiradi. Ishni rejalashtirish uning predmetini, maqsadini bilishni talab qiladi, shu bilan birga bunday ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lum tajriba ham talab qilinadi. SHuning uchun ishni mustaqil ravishda rejalashtirishga birdaniga kirishib bo'lmaydi. Bu ishga bolalar u yoki bu darajada malakaga ega bo'lganlaridan keyin kirishiladi. Hatto o'quvchilarga harakat rejasi taqdim etilganda ham uning ma'lum qismlarini o'quvchilar muhokamasiga qo'yish va ularning anglab etilganiga ishonish kerak. O'quvchilarning ishtirokini asta-sekinlik bilan oshirib, katta hayotiy

ishlarni rejalashtirishni o'rgatib borish kerak. O'quvchi tafakkuri va faoliyatidagi mustaqillikning darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmasligi kerakligidir. Aks holda, o'quv materialini ko'r-ko'rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o'quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta'limning bu turidan darsda tarbiyalangan mustaqil fikrlash faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim. Har darsda o'quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o'rgatilmaydi. O'quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o'qituvchi nimani so'rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko'pchilik o'quvchilar og'zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir-ikki marta qayta o'qiydilar. Ba'zilar hatto o'qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo'lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o'lchovi matnni qayta hikoyalashdan iborat bo'lib qoladi. O'qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina tirishiladi.

Uy vazifasini ma'lum reja asosida tayyorlash ham o'quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to'g'ri yo'lga qo'ya bilgan o'quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg'ulotlarga o'ziga ishongan holda qatnashadi. O'quvchining fikr mustaqilligini faollashtirishda rejalashtirishning ahamiyati juda katta. O'qituvchilar nazarida, bu ma'lum darajada murakkab fikriy faoliyat bo'lgani uchun ham bolalarga nisbatan sodda reja tuzishni taklif qiladilar. Hatto shuning o'zi ham bolalarni o'zgalarning tayyor fikrlarini takrorlashdan chekintiradi, ularni mustaqil ravishda fikr aytishga chaqiradi. Uy vazifalarini ma'lum reja asosida bajarish bolalardan o'quv materialiga ongli ravishda yondashishni talab

qiladi. YAxshi tuzilgan reja o'quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o'rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to'g'ri xulosalar chiqarishga undaydi. O'z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o'rgatadi. Uy vazifalarini og'zaki tarzda bajarishda o'quvchilar matn yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlarga murojaat qilmaydilar, ular bilan ishlamaydilar. O'qituvchilar ham uy vazifasini so'rashda ko'pda bunga e'tibor qilmaydilar. O'quvchilardan uy vazifasini so'rash jarayonida nafaqat ularning olgan bilimlarini aniqlash, balki bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va tizimga solish bo'yicha keyingi ishlar ham tekshirilishi kerak. Bu bilan o'quvchilarning mustaqil ishlashlari va o'qiganlari asosida mulohaza yuritishlariga keng imkoniyat yaratiladi.

Har qanday yozuvchi umrbayonining davrlar bo'yicha o'z tarixi bor. Bu ham o'z navbatida muhokama yoki uy vazifasi uchun mavzu bo'ladi va maxsus savollar ko'magida amalga oshiriladi. Agar adibning tarjimai holidan qandaydir mustaqil qismlarni ajratib olib, shakllantirish uy vazifasi sifatida topshirilsa, o'quvchilar yodlab olingan siyqa iboralarni qo'llamay, material mazmuni ustida o'ylashga, berilgan savollarga moslashishga harakat qiladilar. Bu so'zsiz ularning fikr mustaqilligini faollashtiradi.

Uy vazifalarini og'zaki so'rashning faqat o'quvchi xotirasiga tayanib javob berishi talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so'rash o'qituvchi va o'quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o'quvchilar unda ishtirok etmaydilar. Uy vazifalarini darsda ko'tarilgan asosiy savol muhokamasi natijasiga qarab shakllantirish o'quvchilarni darsda o'rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga, o'qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o'rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo'ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o'z so'zlari bilan etkazishga ham harakat

qiladilar. Bu holat ham ta'limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o'ta muhim hisoblanadi. Bolalar fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

O'rganiladigan o'quv materialini bilishga qiziqish uyg'otish uchun detallarni qayta ishlash bilan chegaralab bo'lmaydi. Uy vazifasi topshirilganda o'quvchilarning fikrini uyg'otish, hodisaning sabablarini aniqlash va uni tushuntirishga yo'naltirish kerak. Bunga erishishi uchun bolalarning oldiga o'ylashga yo'naltiradigan: «...(asardagi biror holatni) qanday tushuntirish mumkin?», «Nega shunday bo'lgani sabablari haqida o'ylab ko'ring», «SHu vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'ladingiz?» singari savol-topshiriqlar uy vazifasi sifatida berilishi kerak. Uyga vazifani so'rash jarayonida ham o'ylashga undovchi qo'shimcha savollar qo'llanmas ekan, o'quvchilarda tashabbuskorlik, onglilik, topqirlik kabi sifatlar shakllantirilmaydi, ular mustaqil fikrga ega bo'lolmaydilar.

Adabiy ta'limda o'quvchilar tafakkurining ijodiy ishlashi uy vazifalari yuzasidan nisbatan murakkab savollar oldiga qo'yilganda sodir bo'ladi. SHu bilan birga ular aniq fakt va zarur ma'lumotlarga ega bo'lganlaridagina muhokamaga qiziqish paydo bo'ladi.

Hamisha ham o'quvchilar uy vazifasi sifatida oldilariga qo'yilgan masalani ijobiy hal qilavermaydilar. Lekin ular qiziqib izlanadilar, hodisaning mohiyatini tushunishga va tushuntirishga urinadilar. O'zlari mustaqil ravishda hal qila olmagan ishlarda kattalardan maslahat, yordam oladilar. Ta'lim jarayonidagi bunday tartib, izlanish o'quvchilarni har qanday hodisada sababni ko'rishga va uni o'zlari bayon etishlariga intilishga o'rgatadi.

Agar darslarda nazorat va tarbiyaviy masalalar uyg'unlikda olib borilsa, uy vazifalarini so'rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, o'quvchilarning hodisalar tahlili va faktlar umumlashtirilishiga bo'lgan qiziqishlari,

imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so‘rash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini so‘rash jarayonida bolalar ko‘pincha u yoki bu hodisani bayon qiladilar, lekin unga baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, o‘qituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni talab qilmagan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘quvchilarda voqea-hodisani baholash, unga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini so‘rash paytida o‘quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi bolaning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga o‘quvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning o‘zlariga ham katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Takrorlash darslari uy vazifasini so‘rashdan o‘rganilgan o‘quv materialini umumlashtirishning nisbatan yuqoriligi bilan farq qiladi. Bunday sharoitda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchilar savollarni oddiy darslardagiga nisbatan muammoliroq tarzda qo‘yadi. O‘quvchilarning javoblari va izlanishlari ham shunga yarasha bo‘ladi.

Agar o‘quvchi bilim olishga qiziqsa, u predmetni jiddiy o‘rganadi. Buning uchun bilim olishning o‘quvchining ichki tabiiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Ehtiyoj insondagi har qanday qobiliyat namoyon bo‘lishining zarur sharti hisoblanadi.

III BOB

TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Adabiyot darsliklari asosida berilgan barcha savol va topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda qo'shimcha didaktik ilmiy va nazariy manbalardan ham foydalanish zaruratini vujudga keltiradi.

Hozirgi davr darsliklarining tuzilishi va mazmuni DTS talablariga to'liq mos keladi. Lekin ularni mukammallashtira borish hayot talabidir. Darsliklarda berilgan materiallarni yanada to'ldirish muammosi savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarning qo'shimcha materiallarni izlab topish va ularni o'zlashtirishiga yo'l ochadi. Savol-topshiriqlar mohiyat e'tibori bilan nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchi uchun ham juda muhim ta'limiy didaktik vazifani bajaradi.

Adabiyot darsliklarida berilgan savol va topshiriqlarning xarakteri hamda yo'nalishlari, o'quvchilarning didaktik manbalar asosida mustaqil ishlarini tashkil etishi bir qancha ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda o'z aksini topgan.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va adabiy tahlil usullariga oid mazkur ishlarda savol va topshiriqlar ustida ishlashning aniq mezonini to'liq belgilanmagan. Ularda muammoning didaktik jihatiga e'tibor qaratilgan, xolos. Ilmiy-metodik qirralarining tub mohiyati esa ochib berilmagan.

Savol va topshiriqlar umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari va darslik majmualarining barchasida berilgan. Zero, ta'lim-tarbiya tizimida o'rganiladigan bilim, o'zlashtiriladigan ko'nikma va malakalar nazoratini

savol-topshiriqlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Muqimiy hajviyotini o'rta umumta'lim maktablarida o'qitishda:

- yangi pedagogik texnologiyalar, xususan ta'limning interfaol usullarini qo'llagan holda har bir darsni o'quvchilar uchun orziqib kutiladigan qiziqarli mashg'ulotga aylantirish;
- o'quvchilar egallagan adabiy-ko'nikma va malakalarni baholash hamda nazorat qilishning turli usullari vositasida mustahkamlash;
- ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy hayot muammolari bilan uzviy bog'lanishiga e'tibor qaratish;
- adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash orqali adabiy-ta'lim muammolarini mantiqiy ketma-ketlikda, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida hal etishga diqqat qaratish;
- adabiyot darslarida o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholashning yaxlit tizimini yaratish,
- asosiy mezonlarini ishlab chiqish;
- adabiyot darslarida bayon etiladigan asosiy tushunchalar, xulosa ta'riflarning aniqligiga erishish kabilar umumta'lim maktablarida adabiyot fanini tadqiqot muammosi asosida o'qitishning ijtimoiy-gumanitar demokratik asoslarini tashkil etadi.

3.2. Dars ishlanmasi.

“Muqimiy. “Sayohatnoma” asari”

DARS LOYIHASI

Sinf: 5

Sana:

Fan: Adabiyot

Mavzu: “Muqimiy. “Sayohatnoma” asari”

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga Muqimiy hayoti va ijodi, “Sayohatnoma” asari” haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarga milliy ma'naviyat va milliy ruh, estetik va adabiy ma'lumot berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarning milliy ma'naviyat va milliy ruh, estetik va adabiy qarashlarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim va nazariy ma'lumotlar berish

Darsning jihozi: darslik, rasmlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, kitoblar va taqdimot.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda ishlash)

DARS REJASI

1.	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	Uy vazifa so'rash	5 daqiqa
3.	YAngi mavzuni tushuntirish	10 daqiqa
4.	"Muqimiy. "Sayohatnoma" asari"	5 daqiqa
5.	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10daqiqa
6.	Badiiy asardan parchalar o'qish va tahlil etish	10 daqiqa
7.	O'quvchilar bilimini baholash uyga vazifa berish	3 daqiqa

Uyga vazifani so'rash.

O'quvchilardan o'tilgan mavzuni tarqatma materiallar asosida uyga vazifani so'rash, takroran dars mavzusi bilan tanishtirish hamda ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

Uyga vazifani mustahkamlash:**DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI**

Mavzu:	"Muqimiy. "Sayohatnoma" asari"
Maqsad va vazifalar	Muqimiy hayoti va ijodini, "Sayohatnoma" asari" tahlil qilish va ifodali o'qishga o'rgatish; - o'quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy dunyolarini kengaytirish; - o'quvchilar qalbida ezgu insoniy fazilatlarni uyg'otish; - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda

	mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirish; - mavzuga oid materiallarni, berilgan topshiriqlarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh tarzida, slaydlar, ko'rsatma qurollar vositasida qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O'quv materiali mazmuni	Muqimiy hayoti va ijodini, "Sayohatnoma" asari" tahlil qilish va ifodali o'qishga o'rgatish. «Sayohatnoma»ning o'z davridagi shuhrati va milliy adabiyot rivojida o'rnini bilishiga o'rgatish. Unda Farg'ona vodiysi aholisiga xos hayot va ruhiyat manzaralarining berilishi, odamlarga xos illatlarning hajviy yo'sinda ifoda etilganligini tushunish, tahlil qilish, vodiyning hozirgi kun hayoti bilan solishtirish. Badiiy asarni u yaratilgan davr bilan bog'lab tushuna olish, asarni tahlil qilish, real hayotiy voqealar bilan taqqoslash.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	SHakl: interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka va guruhlarda ishlash. Metod: "Kichik guruhlarda ishlash", matn bilan ishlash, savol-javob, fikr almashuvi. Vosita: darslik, slaydlar, kartochkalar, videoproektor. Usul: ifodali o'qish, bahs-munozara. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari. Baholash: rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash, ball tizimi.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga etkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: YAngi bilimlarni egallaydi. Muqimiy hayoti va ijodini, "Sayohatnoma" asari" tahlil qilish va ifodali o'qishga o'rganadi. «Sayohatnoma»ning o'z davridagi shuhrati va milliy adabiyot rivojida o'rnini biladi. Unda Farg'ona vodiysi aholisiga xos hayot va ruhiyat manzaralarining berilishi, odamlarga xos illatlarning hajviy yo'sinda ifoda etilganligini tushunadi, tahlil qiladi, vodiyning hozirgi kun hayoti bilan solishtiradi. Badiiy asarni u yaratilgan davr bilan bog'lab tushuna olish, asarni tahlil qilish, real hayotiy voqealar bilan taqqoslash orqali o'quvchida ezgulik, iroda, jasorat kabi

	ahloqiy fazilatlar shakllanadi, ma'naviy barkamollik tushunchasi kengayadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Navbatdagi suhbat uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, pedagogik texnologiya usullarini darsda tatbiq etishni takomillashtirish, pedagogik mahoratini oshirish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish. O'quvchi: "Sayohatnoma"ni yana bir marotaba o'qib, asar mazmuni yuzasidan taassurot yozish.

DARSNING BORISHI:

- Tashkiliy qism:
- YAngi mavzuning bayoni. "Muqimiy. "Sayohatnoma" asari".
- Asar matni ustida ishlash;
- Guruhlarda ishlash. Fikrlar himoyasi;
- Savol va topshiriqlar ustida ishlash. Mustahkamlash.
- Uyga vazifa.

1.Tashkiliy qism: O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni aniqlab, ularning darsga tayyorgarligini kuzatadi.

2. YAngi mavzuning bayoni: Muqimiy XIX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur vakillaridan. U o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida devon adabiyot deb nomlanadigan SHarq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettiradi. Ayni paytda rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik paytidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she'r yozgan, o'z salohiyati va mavqei bilan maktab yaratgan shoir edi.

Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy 1850 yilda Qo‘qonda novvoy oilasida tug‘ildi. Otasi Mirzaxo‘ja asli Toshkentlik, onasi Bibioysha Xo‘jandlik bo‘lgan. Ular to‘rt qiz va bir o‘g‘il ko‘rganlar. Qizlarning oti Tojinisa, Ulug‘bibi, Saydinisa, Mehrinisa.

Muhammad Aminxo‘janing onasi Bibioysha adabiyot va san‘atni sevuvchi, so‘zga usta ayollardan bo‘lgan. Uni yaqindan bilgan ayollar “Xumorbibi” der ekanlar. YOsh Muhammad Aminxo‘janing she‘rga havas qo‘yishida, taxmin qilish mumkinki, uning xizmatlari katta bo‘lgan.

Bo‘lajak shoir eski maktabda xat-savod chiqargach, 1864 yildan Qo‘qon madrasalaridan birida o‘qiydi. 1867 yilda Bibioysha vafot etadi. Biroz vaqt o‘tgach, Mirzaxo‘ja Ziyodabibi ismli ayolga o‘ylanadi. Muhammad Aminxo‘ja 1872-73 yillarda Qo‘qon madrasasini bitirib, Buxoroga yo‘l oladi. 1876 yilgacha Buxoro madrasalaridan birida o‘qiydi. SHu yillari uni Sanambibi ismli qizga o‘ylantirib qo‘yadilar.

1877 yilda Muhammad Aminxo‘ja Qo‘qondagi er qurilish mahkamasiga mirzalik vazifasiga ishga kiradi. Ayrim er o‘lchovi amaldorlarning turli hiyla-nayranglarini ko‘radi. “Tanobchilar” hajvini yozadi. So‘ng Sirdaryo bo‘yidagi Oqjar paromiga pattachi bo‘lib ishga o‘tadi. Bu erdagi ahvol ham shoirga yoqmaydi. Oqjar odamlari haqida yozgan muxammasida o‘qiymiz:

Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam,
Loyiqi tab’ yo‘q odamki, desam hasratu g‘am.
Gaplashurga kishi yo‘q ertadin oqshomg‘acha ham.
Kun sovuq, qora chiroq, go‘rdek uyu, o‘tin kam.
CHiqsam eshikka qilur to‘rg‘ayi chuldur-chuldur.

Odamlari-chi?

Kema vajhini demaslarki, beribon qutilay,
Tarzi bir hiyla qilib, derki yukumni yashuray,

Bilsa sarkori, “pocha!” deb etagigi osulay.

Ikki pul ber yana buyruqqa qarab,-desa degay,

“Na qilarsan, chaqamiz yo‘q, mana o‘ludur-o‘ldur”.

SHoir Oqjarning ayrim shum, battol odamlarini mana shunday tasvir etgan edi. Biroq u Ojar paromida ham uzoq ishlay olmadi. 70-yillarning oxirlaridayoq pattachilikni ham yig‘ishtirib, Qo‘qonga qaytadi. Ijodga beriladi. “Muqim” (turg‘un, turib qolgan) “Muqimiy” taxallusida yozgan she‘rlari bilan dovrug‘ qozondi. Ammo shoirning shaxsiy hayoti yurishmadi. Sanambibi bilan uzoq yashay olmadi. 1879 yilda Sanambibi Muqimiy bilan ajrashadi, o‘g‘li Akbarxo‘jani onasi Ziyodabibiga qoldirib boshqaga turmushga chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay, Mirzaxo‘ja ham vafot etdi.

Muqimiy 1887-88 yillarda Toshkentga keladi, ota qarindoshlari bilan uchrashadi. Almaiy, Nodim Namangoniy bilan tanishadi. Ular bilan yaqindan aloqa bog‘laydi.

SHoir shu yillari og‘ir iqtisodiy tanglikda yashagan. 1890 yilda otadan qolgan xovlini sotib, madrasa xujrasiga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Xattotlik hunari joniga aro kirgan. Kishilar uchun xat (kitobat) yozib, kitob ko‘chirib shundan keladigan daromad xisobiga kun o‘tkazgan. Adabiyot-san’atni yaxshi ko‘rgan davlatmand kishilar moddiy yordam berganlar. SHularning yordamida 1892, 1899 yillarda ikki marotaba Toshkentga kelib ketgani ma’lum.

90-yillarning o‘rtalarida Muqimiy taqdirning bir g‘aroyiboti tufayli Moskvada Lazarev nomli SHarq tillari institutida o‘qib turgan jiyani Ro‘zimuhammad Do‘smatov (otasi haj safarida o‘lib qolganida yaxshi odamlar uchrab, tarbiya qiladilar va o‘qishga yo‘llaydilar) bilan topishadi va ular orasida yozishmalar boshlanadi. 1898 yilda R.Do‘stmatov Qo‘qonga keladi, tog‘a-jiyan uchrashadilar. YOz ta’tili tugagach, Ro‘zimuhammad

yana Moskvaga qaytib keladi. SHoir kuzatib qo'yadi. Kechirmalarini so'ngroq she'riy maktubda shunday ifodalaydi.

To vidalashmakg'a borildi ketoringda sani,
Yig'ladim pinhon otashga tushoringda sani.
Sayr etib, yurganda yurmishdim kanoringda sani.
Ne saodatlig' zamon erkanki, boringda sani.
Maxfilim⁸ ravshan safolig' ro'zg'orim bor edi.
Davlatu iqbol jomidin haq aylab bahramand,
Poyasi qadringni qilgay bora-bora to baland,
Aylagay arqoning⁹ ichra sarforozu arjumand.
Hech yodingga kelurmu, debki shahrida Ho'qand.
Bir g'arib bekas tag'oyi xoksorim bor edi.

R.Do'stmatov ikkinchi marta 1904 yilda Qo'qonga keldi va umrining so'ngigacha Muqimiy uy muzeyida xizmat qildi.

Muqimiy hayotining so'nggi yillari kasallikda kechdi. Quloq og'rig'i, so'ng "yaraqon" (jigar xastaligi) shoirni qiynab qo'ydi. 1902 yilning 16 dekabrda Andijonda dahshatli zilzila yuz berdi. SHahar lahzada vayronaga aylanib, 4652 kishi halok bo'ladi. SHoir bundan qattiq larzaga tushadi. SHaharga borib ofat oqibatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi va istirob to'la tarix-marsiya bitadi.

SHoir fojia manzaralarini ro'y-rost tasvir etar ekan, sabablarini, o'z aqidasiga ko'ra, jamiyat axloqi bilan bog'laydi, ayrim odamlarning buzilishidan ko'radi. SHe'r shoir o'limidan bir oy oldin "Turkiston viloyatining gazetisi"da bosiladi.

Muqimiy 1903 yil 25 mayda vafot etadi.

⁸ Махфил-анжуман, базм

⁹ Арқон-тенгдошлар.

Muqimiyning bizga etib kelgan ijodiy merosini 10 ming misra atrofida taxmin qiladilar. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat. Muqimiy asarlari birinchi marta 1907 yilda Toshkentda (“Devoni Muqimy”) bosilgan. Uni N. Ostroumov nashrga tayyorlagan va so‘ng so‘z bilan e‘lon qilgan edi. 1910-12 yillarda uning yoniga shoir hajviyoti qo‘shilib, “Devoni Muqimiy hajviyoti” nomi bilan ikkinchi marta chop etildi. Sovet davrida, 1960 yilda Muqimiy asarlarining 2 jildligi bosildi. Professor /ulom Karimov u haqda monografiya yaratdi (1970).

Muqimiy tabiatdan hozirjavob kishi edi. Ko‘plab zamondoshlari singari o‘zbek va tojik tilida baravar yoza olardi. Ko‘pgina she‘rlari o‘zining yozilish tarixiga ega. Ulardan ayrimlarini tarjimai holida ko‘rib o‘tdik. Ma‘lum munosabat bilan yozilgan she‘rlari orasida Toshkent noibi vafotiga bag‘ishlangan (“Tarixi favti noibi Toshkanday”) besh baytlik tojikcha tarix-marsiyasi bor. “Noibi Toshkandiy” 1892 yildagi Toshkent qo‘zg‘olonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan In‘omxo‘ja bo‘ladi. Turkiston harbiy okrug sudi uni 1892 yil 10 dekabrda Irkutsk guberniyasiga surgun qilgan edi. Biroq u kasalmandligi tufayli shu erda qoldiriladi. Qamoqni shu erda o‘taydi. 1897 yilning 3 fevralida shu erda vafot etadi.

Tarix marsiyada shoirning chor Rossiyasi siyosatiga qarshi bosh ko‘ratgan qahramonga mehr-muhabbati ochiq ifodalanadi. “Garchi hibsdagi urbatdan qon yig‘lasa-da, oqibat shahid bo‘ldi. Uning vafoti kuni aziz-avom, katta-kichik butun Ho‘qand xalqi motam tutdi”,-deyiladi marsiyada.

Muqimiy In‘omxo‘ja mashaqqatlariga o‘zini hamdard tutadi. SHoir fikricha, In‘omxo‘ja o‘lgan emas, uni o‘ldirganlar. U shaxiddir. U hayotga shunchaki kelib-ketgan emas, juda katta ish qilgan. SHu sababli, u el-yurtning mehriga, muhabbatiga musharraf bo‘lgan. SHuning uchun ham uning o‘lmiga butun Qo‘qon aza tutdi.

Muqimiy “Sayohatnoma”lari:

Muqimiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she‘r qilib yozgan va bular “Sayohatnoma” nomi bilan shuhrat topdi. Bular shoirning Qo‘qon-Farg‘ona, Qo‘qon-SHohimardon, Qo‘qon-Isfara sayohatlari taassurotlaridir. Har uch sayohatnoma yaxlit bir asar shaklida bo‘lib, to‘rtliklardan tarkib topgan. Jami: 244 misrada. Hammasi bir vaznda-ramali musammasni solimda, har bir band “ekan” radifi bilan yakunlanadi. Hammasi uchun bitta umumiy muqaddima va bitta umumiy yakun-xulosa bor. Asarda sayohat sababi beriladi, so‘ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe‘l-udumlar hikoya qilinadi.

“Sayohatnoma”

Faryodkim, garduni dun,
Aylar yurak bag‘rimni xun.
Ko‘rdiki bir ahli funun-
CHarx anga kajraftor ekan.

degan satrlar bilan boshlanadi.

Mumtoz adabiyotimizda “hasbi hol” degan maxsus janr bor. Unda shoir o‘z ahvoli haqida yozadi. Goho uning ayrim, ko‘rinishlari boshqa xil she‘rlarda ham uchraydi. “Sayohatnoma”da mana shunday hol mavjud. SHoir “garduni dun” (“pastkash dunyo”)dan faryod qilmoqda, yurak-bag‘rini “qong” (“xun”) qilganini aytmoqda. “Ahli funun” (“ilm-fan kishilari”)ga bu dunyoning hamisha teskari (“kajraftor”) yurganini bildirmoqda. SHoir bu fikrini oltinchi bandida davom ettirib, sayohat sababini shunday aniqlashtiradi:

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Hoxi yayov, bo‘lsun otim.
Goh sayr ham darkor ekan.

Muallif kayfiyati, holati, atrof-muhitga, kishilarga munosabati “Sayohatnoma” satrlarida ayon sezilib turadi. Masalan, shoir SHohimardon tomon yo‘l olar ekan, Ultarma, Do‘rmoncha, Bo‘rbaliq, Oq er, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, CHimyon, Vodil qishloqlari bilan tanishtiradi, ularning har birini ta’rif-tavsif etadi.

Ammo nazarda Roshidon
Firdavs bog‘idin nishon.
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gulu gulzor ekan.

yoki:

Vodil maqomi dilfizo,
Ko‘chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga obishor ekan.

Xuddi shuningdek, keyingi sayohatnomasida Kudash, YAyfan, Nursux, Beshariq, Konibodom kabi qishloq va shaharlar bilan bog‘liq tafsilotlar beriladi. SHoir soya-salqinga ko‘milgan Rapqonni, tolzorlari kishini maxliyo qiladigan YAypanni zavq-shavq bilan maqtaydi. Ona-Vatanning betimsol tabiatini, ko‘zni qamashtiruvchi manzaralarini, “anhoru soyu cho‘llari” va “shirin zardolulari”ni so‘ngsiz mehr va iftixor bilan tasvirlaydi.

Asarning ohangi ravon, o‘ynoqi. Rajazning to‘rt ruknlik solim bahrida yozilgan, ya’ni mustaf’ilun mustaf’ilun.

Nursux kabi bir joy kam,

— - u - - u - -

Tushmay o‘tib qildi alam

- - u - - u - -

Olma anor o‘rniga ham

- - u - - u - -

Bog'ida toku zang ekan

- - u - u - -

Muqimiy ijodi o'zbek adabiyotida XIX asrning so'ngida boshlangan bir qator o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi. Jumladan, zavod-fabrikalar tashkil topishi, ishchilar sinfining maydonga chiqishi, tili, dini, xulqi-tabiati keskin farq qiluvchi Evropaning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalq turmushiga etkazgan ta'siri, evropalashuv tomon qo'yilgan dastlabki qadamning yaxshi-yomon jihatlari ilk dafa' Muqimiy ijodida o'z ifodasini topdi. Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g'oya va mazmunigagina emas, shaklu ifodalariga ham ma'lum yangiliklar kiritdi. Hajvga alohida e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi. Sayohatnomani mustaqil janr darajasiga ko'tardi.

3. Lug'at ustida ishlash. Darslikda berilgan qiyin so'zlar izohlanib, ma'nosi anglatiladi.

4. Matn ustida ishlash. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qiladi, so'ngra o'quvchilarga o'qitiladi, tabdil yordamida matn ma'nosi tushuntiriladi.

Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish kutilgan pedagogik samarani berishi mumkin.

“Sayohatnoma”dan olingan parcha g'oyat qiziqarli, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi asarni o'tish jarayonida uning tasvirigagina e'tibor berib qolmasdan, uning badiiy jozibasi va estetik ta'sirchanligini e'tibordan chetda qoldirib ketmasligi kerak. Buning uchun undagi tasvir ob'ekti, qishloq va shaharlar bilan bog'liq tafsilotlar, shoir soya-salqinga ko'milgan Rapqonni, tolzorlari kishini maxliyo qiladigan YAypanni zavq-shavq bilan maqtaydi, Ona-Vatanning betimsol tabiatini, ko'zni qamashtiruvchi manzaralarini, “anhoru soyu cho'llari” va “shirin zardolulari”ni so'ngsiz

mehr va iftixor bilan tasvirlashiga o‘quvchilar diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq.

5. Savol topshiriqlar bilan ishlash.

1. Muqimiyning shoir bo‘lib etishishida oila muhitining va rasmiy xizmatining qanday o‘rni bor?
2. Muqimiyning “Sayohatnoma”si badiiyati, ifoda xususiyatlarini so‘zlab bering.
3. Muqimiyning “Sayohatnoma”si qachon yaratilgan?
4. Asarda qanday masalalar tasvirlangan?
5. Asarda ishtirok etgan asosiy qahramonlarni sanang.
6. Asar voqealari asosan qaerlarda bo‘lib o‘tadi?
7. Asar nima uchun “Sayohatnoma” deb nomlanadi?
8. Muqimiy hajviyalarining g‘oyaviy mazmunini aniqlang,
9. Muqimiyning hazil-mutoyiba she‘rlarini aniqlang. Ularning mazmun-mohiyatini shoirning kulgu yaratish maxoratini va usullarini belgilang.

SHu tariqa “Sayohatnoma” tahlil etilgach, undagi qishloq va shaharlar bilan bog‘liq tafsilotlar tavsiflanadi.

6. Guruhlarda ishlash: O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, ularga quyidagi topshiriqni berish mumkin: “Sayohatnoma”dagi qishloq va shaharlar bilan bog‘liq tafsilotlarga qiyosiy tavsif bering. O‘quvchilar tafsilotlarni o‘zlari tahlil qilishga harakat qilishadi va ularlarning o‘xshash hamda farqli tomonlarini «Venn diagrammasi»dan foydalanib topishadi. Qishloq va shaharlar bilan bog‘liq tafsilotlarga bolalar diqqati tortiladi.

Fikrlar himoyasi: Guruh sardorlari timsollar bo‘yicha o‘z guruhlari fikrini himoya qiladilar.

7. Mustahkamlash: Quyidagi savollardan foydalangan holda tashkil etiladi.

1. O‘quvchining Muqimiy ijodi va “Sayohatnoma”si haqidagi fikri.

2. “Sayohatnoma”dagi qishloq va shaharlar bilan bog‘liq tafsilotlarga qiyosiy tavsif bering.
3. “Sayohatnoma” nechta sayohatdan iborat?
4. Asar qanday shaklida yozilgan?
5. Nechta misradan iborat?
6. Qaysi vaznda yozilgan?
7. Har bir band qanday radif bilan yakunlanadi?
8. Muqimiy sayohatining sababi?
9. Turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasviri. Joylardagi odamlar, fe’l-udumlar.
10. Asar haqidagi taassurotlaringizni so‘zlang.

Uyga vazifa: Muqimiyning “Sayohatnoma” asaridan parcha yod olish.

O‘quvchilar bilimini baholash.

XULOSA

XIX asrning II yarmida va XX asr boshidagi o'zbek adabiyotida satirik yo'nalish bilan bir qatorda yumorning rivojlanishda ham Muqimiyning xizmatlari katta bo'ldi. Biz bunda yumoristik asarlarning shoir merosida salmoqli o'rin egallashni, ular ta'sirida bu davrning boshqa ijodkorlari tomonidan ham qator yumoristik asarlar yaratiganligini nazarda tutamiz.

Muqimiy bu sohada ham klassik adabiyotimizning ilgor an'alarini davom ettirdi, rivojlantirdi, xalq ogzaki ijodidan ko'p va barakali ta'sirlandi. SHoir yumorlarida, Alisher Navoiy, ayniqsa, Maxmur ijodining izlari yaqqol ko'rinadi. Muqimiyning yumoristik asarlariga xos bo'lgan umum xususiyat sifatida shuni aytish mumkinki, ularning mohiyatini qo'pol, qahqaqa, begaraz hushchaqchaqlik, mazmunsiz mutobiba, kulgi uchun kulgi belgilamaydi. Aksincha, shoir qo'lida kulgu ko'p o'rinlarda hayotdagi qaloq, chirilgan, taraqqiyotga to'siq bo'lib turgan govlar, shaxslar ongi va tabiatidagi ajizlik nuqsonlari, xunuk fe'l-atvor va o'rinsiz xatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, «turtib o'tish» vazifalarini ham o'taydi, illat va kamchiliklarni engil tanqid etishda bir qurol vazifasini ham bajaradi. Albatta, kulguning ob'ekti va yo'nalishi, darajasi va maqsadi shoirning satirik asarlaridagi fosh etuvchi kulgidan jiddiy farq qiladi. YUmoristik asarlarda kulgu o'z xarakteri e'tibori bilan keskin mayna etuvchi zaharxonda emas, avtor «meni» ham qat'iy ters pozitsiyada turmaydi unda iliqlik va samimiylilik, muloyimlik va ochiq ko'ngillik sezilib turadi, ba'zan esa yaxshi niyat bilan achinish va tashvish tortish, shuningdek, hamdardlik ohanglari eshitiladi.

Hajm jihatidan ham shoirning adabiy merosidagina emas, hatto butun adabiyotda eng yirik asar bo'lgan «Sayohatnomalar» o'zining qator xususiyatlari bilan tekshiruvchi diqqatini tortadi. Birinchi xususiyati shundaki, o'tmishda mavjud bo'lgan memuartarixiy xarakterdagi prozoik

sayohatnomadan farqli o'laroq, Muqimiy «Sayohatnomalar» to'la ma'nodagi poetik asardir. «Sayohatnomalar»ning mukammal badiiy asar ekanligi bilan izohlanuvchi xususiyati shundaki, garchi ular to'rt qismdan («Qo'qondan SHohimardongacha», «Qo'qondan Farg'onagacha», ikki qismlik «Qo'qondan Isfaragacha») iborat bo'lsada, yaxlitlikni tashkil etadi. Bu qismlar umumiy qat'iylashgan ichki «qonuniyatlari»ga ega ularning umumiy yagona vazn» yagona she'riy tuzish, yagona qofiyalanish sistemasi birlashtirib turadi. Har bir qism bandlari umumiy qofiya bilan o'zaro birlashadi radif esa faqat bir qism uchun emas, balki butun asar - to'rttala qism uchun yagonadir.

Muhammad Alinxo'ja Muqimiyning ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixi oldidagi xizmatlari benihoya katta u har bir yirik adib kabi o'tmish adabiyotning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi va ayni zamonda chin ma'noda navator shoir sifatida faoliyat ko'rsatdi. SHoir qoldirgan katta merosning ko'pligini tashkil etuvchi eng yaxshi lirik asarlarda o'tkir satiralari va quvnoq yumorlarida xalqchil mazmuni, xalqchil uslubda yuksak goyaviylik va badiiy etuklik bilan san'atkorlikni tahlil etdi, davrning ilgor goya idialarini targ'ib qildi.

O'zbek adabiyotining klassiklari qatoridan xalqli o'rin olgan Muqimiyning ijodi davr adabiyotining boyib rivojlanishida va shakllanishida katta rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»talablari asosida «Davlat ta'lim standartlari»ning qabul qilinishi adabiyot ta'limi oldiga juda muhim talablarni qo'ydi.

Adabiyot ta'limi tizimini tubdapi isloh qilish, shuningdek, adabiyot ta'limi mazmunida ham tub islohotlarni amalga oshirish masalasi qo'yilgan edi. Davrimiz barcha boshqa fanlar qatori adabiyotdan bilim berish ishiga

mutloqo yangicha yondashishni taqozo etadi. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar bevosita adabiyot metodikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan iloji yo'q. Ilgarigi dastur va darslikka qo'yilgan talablar tubdan o'zgartirilib, barcha qatori adabiyot fanida ham yangicha qarashlar vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Adabiyot darslarini ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish tarbiyalanuvchida mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga ustuvor e'tibor qaratish o'quvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashiga, o'z shaxsida ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishiga omil bo'ladi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatish, umuman, pedagogika, xususan, adabiy ta'limning bosh maqsadi bo'lmish ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo'ladi. O'z fikri, o'z qarashiga ega bo'lish komil shaxslikning muhim belgisi hisoblanadi.

Adabiyotdan o'zlashtirish kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va insoniy sifatlarning o'quvchi tomonidan fikrini zo'riqtirib, mehnat bilan o'rganilishini tashkil etish, har bir adabiy qahramonga ijobiy yoki salbiy obraz yoxud jonsiz badiiy qahramon deb emas, inson deb qarashga yo'naltirish unda fikr mustaqilligi bilan birga ma'naviy sifatlarning yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning darslik yoki o'rganilayotgan badiiy asardagi haqiqatlarni o'qituvchisidan tayyor holda olmay, o'zi kashf etib o'zlashtirishi unda yaratuvchilik qobiliyatini uyg'otadi. O'quvchi kashfiyot lazzatini tuyadi va bu uni yangi izlanishlar sari etaklaydi.

Bugungi milliy pedagogikaga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlar ham o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishishni nazarda tutadi.

«Aqliy hujum» metodi o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, uni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil fikrlashdan ozod qilish, ma’lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondashishni ta’minlaydi. Bu jarayonda o‘quvchilarning tafakkur mustaqilligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1997
4. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston, 2015.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997
8. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997
9. Abduvalidov E. Yangi pedagogik texnologiya muammolari. Til va adabiyot ta'limi. 2001, № 1
10. Abdurazzoqov A. Adabiyot darslarida muammoli vaziyat yaratish. Til va adabiyot ta'limi. 1993 № 34
11. Adabiyot dasturi. V-XI sinflar uchun. –T.: O'qituvchi, 1993
12. Golubkov V.V. Metodika prepodovaniya literaturi. –M.: Uchpedgiz, 1962.
13. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi: o'qituvchilar uchun qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1989
14. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1992
15. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996

16. Yoʻldoshev Q.. Oʻqituvchi kitobi. Metodik qoʻllanma. 7-sinf "Oʻzbek adabiyoti" darslik-majmuasi uchun. –T.: Oʻqituvchi, 1997
17. Yoʻldoshev Q. va boshq. Adabiyot oʻqitish metodikasi. Dasturiy qoʻllanma. –T.: RTM, 1994
18. Yoʻldoshev Q. va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik majmua. –T.: Oʻqituvchi, 1999
19. Karimov Gʻ. Muqimiy. –T.: 1970
20. Karimov Gʻ. Muqimiy satirasi. –T.: 1963
21. Karimov N., Normatov U. Adabiyot. 5--sinf uchun darslik-majmua. –T.: Oʻqituvchi, 1999
22. Matchonov S., Sariev SH. Oʻzbek adabiyoti. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2003
23. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari. T.: RUMM. 1993
24. Muqimiy. Tanlangan asarlar. II tomlik. –T.: 1963
25. Niyozmetova T. Adabiyot darslaridan mustaqil ishlar. –T.: Oʻqituvchi, 1984.
26. Toʻxliiev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. –T. Yangi asr avlodi. 2006
27. Tojiev A. Adabiyot darslarida suhbat. –T.: Oʻqituvchi, 1997
28. Gʻulomova N. Adabiyot darslarida ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.: 2003
29. Husanboeva Q. "Gulnor opa" muammosi va uning echimi..Til va adabiyot taʼlimi. 2004. № 6
30. [www. literature. uz](http://www.literature.uz)
31. [www. ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.Uz)
32. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
33. [ww. kutubxona.com](http://ww.kutubxona.com)
34. [www. ijod.uz](http://www.ijod.uz)
35. [www. adabiyot.uz](http://www.adabiyot.uz)